

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI



KOMILOV L.Z.

O'QUV QO'LLANMA



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
QUROL QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI:
XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI

KOMILOV L.Z.

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QUROL QO'LLASHNING
HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIK**

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT-2024

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Ilmiy kengashida ma’qullangan.*

Muallif:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Jangovar tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, kapitan
Komilov L.Z.

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institute Yuridik fanlar kafedrasи
dotsenti, podpolkovnik
Muxtorov J.S.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligini
ta’minlash kafedrasи boshlig‘i, polkovnik, y.f.d., professor
Selimanova S.M.

K-63 Ichki ishlар organlarida qurol qo‘llashning huquqiy asoslari: xalqaro va
milliy qonunchilik. O‘quv qo‘llanma. Komilov L.Z.- T: O‘zbekiston
Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, 2024. - 97 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada ichki ishlар organlari xodimlari tomonidan qurol
qo‘llashning huquqiy asoslari bilan bog‘liq ilmlarni hamda tartibotlarni batafsil
yoritish maqsad qilingan. O‘quv qo‘llanma mutolaa qiluvchilarga ichki ishlар organi
xodimi tomonidan qurol qo‘llash jarayoniga tegishli bo‘lgan xalqaro huquq
hujjatlari hamda milliy qonunchilikni o‘rganish imkonini beradi.

O‘quv qo‘llanma professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar,
amaliyot xodimlari, tinglovchilar va barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

MUNDARIJA

Kirish

5

I BOB. QUROL QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI.

QUROL QO'LLASH BILAN BOG'LIQ XALQARO QONUNCHILIK

1-§ Ichki ishlar organlarida quroq qo'llashning huquqiy asoslari tushunchasi. Quroq qo'llash bilan bog'liq xalqaro qonunchilik

7

2-§ Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar tomonidan kuch va o'qotar quroq qo'llash bo'yicha asosiy tamoyillar

10

3-§ Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslarning xulq-atvor bo'yicha kodeksi

19

4-§ Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslarning xulq-atvor bo'yicha kodeksini samarali amalga oshirish uchun rahbariy tamoyillar

26

5-§ Politsiya to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qilish haqida
690-rezolyutsiya

29

II BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QUROL QO'LLASH BILAN BOG'LIQ MILLIY QONUNCHILIK

1-§ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

36

2-§ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi

41

3-§ 2016-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni

75

4-§ O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari

81

5-§ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi 1996-yil 20-dekabr kunidagi 39-son Qarori

85

Xulosa

91

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

93

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon amalga oshirilayotgan islohotlarning eng katta natijasidir.

Ma’lumki, 2022-yil 28-yanvar kuni O‘zbekiston kelajagi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan eng muhim hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu bilan kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonni keyingi besh yilda rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Ular, o‘z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Ushbu Taraqqiyot strategiyasida belgilangan 100 ta maqsadning 17-maqsadi bo‘lib, “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish” deb nomlangan hamda ushbu maqsad o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish;
- qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq vaadolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish;
- tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish.

Shuni alohida e’tirof etish lozimki, hozirgi Yaqin Sharq mintaqasidagi beqaror geosiyosiy vaziyat hamda 2024-yil 22-mart kuni Rossiya Federatsiyasi, Moskva tumanidagi Krasnogorsk shahrida joylashgan “Crocus City Hall” konsert zalida sodir etilgan terakt ijtimoiy rezonansga sabab bo‘ldi hamda uning oqibatlari

O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmayapti. Ushbu holatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarining quroq qo‘llash bilan bog‘liq faoliyatini huquqiy jihatdan detallashgan holda tartibga solinishini taqozo etmoqda.

Ichki ishlar organi xodimi o‘z xizmat faoliyatini amalga oshirishda jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash kabi vazifalarini samarali bajarish uchun “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunda ayrim huquqlar belgilab berilgan. Ushbu huquqlar o‘ziga xos vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, o‘qotar qurolni qo‘llash huquqi alohida ahamiyatga ega. Bir tomondan, o‘qotar qurolni qo‘llash huquqi boshqa huquqlardan farqli o‘laroq, fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklariga chuqur ta’siri etishi bilan bir qatorda, insonning yashash huquqidan mahrum qilishgacha bo‘lgan og‘ir va qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlarning yuqori xavfini vujudga keltiradi. Ikkinchisi tomondan esa, ushbu huquqlar qonunlarga itoatkor fuqarolarni va ichki ishlar organi xodimini qonunni qasddan, qo‘pol ravishda buzuvchi shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishidan himoyalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi¹.

Ichki ishlar organi xodimi tomonidan o‘qotar qurolni qo‘llash nihoyatda murakkab fenomen hisoblanib, ushbu huquqni amalga oshiruvchi xodimlardan ikki sohada, ya’ni kasbiy sohada hamda huquqiy sohada yuqori darajadagi malaka va savodxonlikni talab etadi. Ushbu keltirilgan ikki sohaga oid ilmlarning xodim tomonidan egallanmasligi javobgarlik masalasini yanada murakkablashuviga olib keladi. Shu munosabat bilan, xizmat taqozosi o‘qotar qurolni qo‘llash huquqi bilan bog‘liq bo‘lgan xodimlarga soha bo‘yicha kasbiy hamda huquqiy ilmlarni puxta egallah tavsiya etiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Taraqqiyot strategiyasining yuqorida keltirilgan maqsad va vazifalarini hamda muallif tavsiyasini o‘z ichiga olgan holda, 17-maqsadni amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shadi, degan umiddamiz!

¹ Ю.П.Соловей “Некоторые правовые вопросы применения сотрудниками полиции физической силы, специальных средств и огнестрельного оружия” / Научная статья / Журнал «Проблемы права – индекс 73848», Российская Федерация, 2011 г, 136 стр.

I BOB. QUROL QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI. QUROL QO'LLASH BILAN BOG'LIQ XALQARO QONUNCHILIK



1-§ ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QUROL QO'LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI TUSHUNCHASI. QUROL QO'LLASH BILAN BOG'LIQ XALQARO QONUNCHILIK.



Ma'lumki, o'quv qo'llanma "Ichki ishlar organlarida qurol qo'llashning huquqiy asoslari: xalqaro va milliy qonunchilik" deb nomlangan. Qo'llanmaning nomi qanday mazmun-mohiyat anglatishini aniqlash maqsadida keltirilgan so'zlarni atroflicha tahlil qilish lozimdir.

Ichki ishlar organlari - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organdir¹. Shuningdek, internet manbalarida **ichki ishlar organlariga** – "huquqni muhofaza qilish tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka shuningdek, boshqa huquqbazarliklarga qarshi kurashish bo'lgan davlat ijro hokimiyati organi"² deb, ta'rif berilgan.

2019-yil 29-iyuldaggi O'zbekiston Respublikasining "Qurol to'g'risida"gi O'RQ-550-sodan Qonunining 3-moddasi (Asosiy tushunchalar)da "**Qurol** – tuzilishiga ko'ra jonli nishonni yoki boshqa nishonni urish, signallar berish uchun mo'ljallangan qurilmalar va ashyolar.", "**O'qotar qurol** – porox yoki boshqa modda quvvati hisobiga yo'naltirilgan holda harakatga keluvchi aslaha bilan nishonni masofadan turib mexanik urish uchun mo'ljallangan qurol", deya ta'rif berilgan.

¹ <https://ru.wikipedia.org>

² <https://ru.wiktionary.org>

“Huquqiy asoslar” tushunchasini bilib olishimiz uchun, avval, “**huquq**” tushunchasiga ta’rif berishimiz lozimdir. Yuridik adabiyotlarda huquq tushunchasini ta’riflashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Huquq haqidagi fikr-mulohazalar xilma-xilligi u haqda aniq tasavvurning shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab omillar mavjudligidan kelib chiqadi. Ushbu fikr-mulohazalarning yig‘indisi huquq tushunchasini yaxlit tasavvur qilishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Mashhur huquqshunos Trubeskoy E.N tomonidan o‘zining “Huquq qomusi” asarida “Ilmda bahsli bo‘lgan huquqning mohiyati masalasini hal etish uchun, avvalo, uning shubhasiz belgilarini aniqlab olish, so‘ngra munozarali jihatlarini tahlil etishga o‘tish ma’qul”¹ deya, fikr bildirilgan. Shunga ko‘ra, huquq tushuchasi haqidagi tahlil natijalari quyidagi mulohazalar bilan keltiriladi:

“Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umummajburiy ijtimoiy normalari tizimi”². **Huquq** – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, davlat tomonidan qabul qilingan yoki ma’qullangan yashash qoidalari tizimidir³. *Fikrimizcha, “huquq* – davlat tomonidan chiqarilgan, davlat tomonidan tartibga solinadigan, barcha uchun bajarilishi umummajburiy bo‘lgan xulq-atvor qoidalar yig‘indisidir”.

Popandopulo N.A.ning “”Huquqiy asoslar” kategoriyasining yuridik mazmuni” nomli ilmiy maqolasida **“Huquqiy asoslar** – ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir sohasida (turida) ijtimoiy muhim natijalarni ta’minalash uchun barqaror dinamik aloqada bo‘lgan harakatlar tizimi”⁴” deb, ta’rif berilgan.

Huquqiy asosga mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda ta’rif beradigan bo‘lsak, u – qonun bilan belgilangan yurish-turish qoidalaridir. Ular qonun va qonunosti hujjat shaklida ifodalanadi⁵.

¹ Трубецкой Е.Н. Энциклопедия права. – Киев, 1901. – 11-бет.

² <https://uz.wikipedia.org>

³ Davlat va huquq nazariysi: Darslik / Odilqoriyev X.T.; – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2018-yil, 166-bet.

⁴ <https://cyberleninka.ru>.

⁵ Muallif fikri

Qonunchilik – muayyan davlatda amalda bo‘lgan yoki ijtimoiy munosabatlarning barchasini yoxud ma’lum bir sohasini tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisidir¹.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish lozimki, o‘quv qo‘llanmaning asosiy mazmuni ichki ishlar organi xodimi tomonidan quroq qo‘llashning xalqaro hamda milliy qonunchilikdagi huquqiy tartibotlarini yoritishga yo‘naltirilgan.

Quroq qo‘llash bilan bog‘liq xalqaro qonunchilik quyidagilardan iborat:

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha 1990-yil 27-avgust – 7-sentabrda Kubaning Gavana shahrida o‘tkazilgan Sakkizinchি Kongressidagi “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar quroq qo‘llash bo‘yicha asosiy tamoyillar”;

- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yil 17-dekabrdagi 34/169-rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvori bo‘yicha kodeks”;

- BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining 1989-yil 24-maydagи 1989/61-rezolyutsiyasi asosida tasdiqlangan “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvori bo‘yicha kodeksini samarali amalga oshirish uchun rahbariy tamoyillar”;


- Yevropa Kengashi Parlamental assambleyasining 1979-yil 8-maydagи 690-rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan “Politsiya xizmati etikasining Asosiy tamoyillari”.

Keyingi paragraflarda yuqorida keltirilgan huquqiy asoslarga batafsil sharh berib o‘tiladi.

¹ uz.wikipedia.org.

1.2-§ HUQUQNI TA'MINLOVCHI

MANSABDOR SHAXSLAR TOMONIDAN KUCH VA O'QOTAR QUROL QO'LLASH BO'YICHA ASOSIY TAMOYILLAR (Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha Sakkizinchgi Kongressi (Gavana, Kuba, 1990-yil 27-avgust – 7 sentabr) da qabul qilingan)



Huquqni muhofaza qiluvchi organlari mansabдор shaxslarning xizmat faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy xizmatni o'zida namoyon etadi va shuning uchun ushbu mansabдор shaxslarning xizmat sharoitlari hamda status (mavqeilarini saqlashi zarurligi, zarur hollarda esa ularning mehnat sharoitlari va status (mavqeilarini yaxshilash zarurligi e'tiborga olinadi;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining hayoti va xavfsizligiga tahdid qilish butun jamiyat barqarorligiga tahdid qilish deb qaralishi kerak, deb e'tirof etish lozim;



Shuni e'tiborga olish kerakki, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida kafolatlangan va fuqarolik hamda siyosiy huquqlar to'g'isidagi Xalqaro paktda tasdiqlangan shaxs hayoti, erkinligi va xavfsizligi huquqlarini himoya qilishda muhim hayotiy rol o'ynaydi;

Mahbuslar bilan muomala qilishning Minimal standart qoidalari shunday holatlari nazarda tutadiki, zarur vaziyatlarda turma mansabдор shaxslari o'z xizmat vazifalarini bajarishi vaqtida kuch ishlatishi mumkindir;

Huquqni ta'minlovchi mansabдор shaxslarning xulq-atvori bo'yicha Kodeksning 3-moddasi shuni nazarda tutadiki, huquqni ta'minlovchi mansabдор

shaxslar faqatgina favqulodda holatlarda va o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun zarur hajmda kuch ishlatishlari mumkindir;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Italiyaning Varenn shaharchasida bo‘lib o‘tgan jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha yettinchi Kongressiga tayyorgarlik yig‘ilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan qonunga asoslangan holda kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llashni chegaralash bo‘yicha kelgusi ish jarayonida hisobga olinishi kerak bo‘lgan elementlar kelishilganligini e’tiborga olish darkor;

Yettinchi kongress o‘zining 14-rezolyutsiyasida boshqa narsalar qatorida huquqni muhofaza qilish mansabdar shaxslari tomonidan kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llash inson huquqlarini tegishli hurmatga mutanosib ravishda amalga oshirilishini ta’kidlaganini e’tirof etish lozim;

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash o‘zining 1986-yil 21-maydag‘i 1986/10-rezolyutsiyasi 9-bobida huquqni muhofaza qiluvchi organlari mansabdar shaxslari tomonidan kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llash bo‘yicha Kodeksni amalga oshirish jarayonida ishtirokchi davlatlarga alohida ahamiyat berishlarini taklif etdi, Bosh Assembleya esa 1986-yil 4-dekabrdagi o‘zining 41/149-rezolyutsiyasida boshqa narsalar qatorida Kengashning ushbu tavsiyasini ma’qullaganligini inobatga olish lozim;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlari mansabdar shaxslarining yetarli darajadagi rolini ta’minalash va rag‘batlantirish bo‘yicha masalalarini hal etishda ishtirokchi davlatlarga yordam ko‘rsatish uchun quyida bayon etilgan asosiy tamoyillar hukumatlar tomonidan ularning milliy qonunchilik amaliyoti doirasida e’tiborga olinishi va hurmat qilinishi lozim va huquqni muhofaza qilish xodimlari, shuningdek, sudyalar, prokurorlar, advokatlar, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati a’zolari kabi boshqa shaxslar hamda jamoatchilik xabardor qilinishi darkor.

Asosiy tamoyillar

1. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslarining kuch ishlatish va o'qotar qurolni qo'llash borasidagi tegishli qoidalar va tartibotlar qabul qilinadi. Bunday qoidalar va tartibotlarni ishlab chiqishda hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar kuch ishlatish va o'qotar qurolni qo'llash bilan bog'liq bo'lган axloqiy masalalarni doimiy ravishda kontrol qilishlari lozim.



2. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar maksimal darajada vositalarning keng spektrini ishlab chiqish hamda differensiyalashgan ravishda kuch ishlatish va o'qotar qurolni qo'llash imkoniyatini beruvchi turli xil quollar va o'qdorilar bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini quollantirishlari tavsiya etiladi. Ular insonlarni o'ldirish yoki yarador qilish qobiliyatiga ega bo'lган vositalardan foydalanishni tobora ko'proq cheklash maqsadida kerakli vaziyatlarda o'limga olib kelmaydigan, safdan chiqaruvchi quollarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yishlari lozim. Shunday maqsadda har qanday o'qotar qurolni qo'llash zaruriyatini kamaytirish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini qalqonlar, kaskalar, himoya nimchalari (bronejiletlar) va o'q o'tkazmaydigan (zirhlangan) transport vositalari kabi o'zini himoya qilish vositalari bilan quollantirish imkoniyati ta'minlanishi kerak.



3. Safdan chiqaruvchi, o'limga olib kelmaydigan qurolni ishlab chiqish va uni qo'llash begona shaxslar uchun xavf keltirib chiqarishini imkon qadar past darajaga tushirish bilan puxta ko'rib chiqilishi kerak, bunday quroldan foydalanish esa har tomonlama mukammal nazorat qilinishi lozim.

4. Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar o'z xizmat majburiyatlarini bajarishlari vaqtida kuch ishlatish va o'qotar qurolni qo'llashdan avval imkon qadar

kuchishlatar vositalardan foydalanmasliklari lozim. Ular faqatgina boshqa vositalar samarasiz bo‘lganida yoki ko‘zlangan natijaga erishish imkoniyati mavjud bo‘lmagan holatlardagina kuch ishlatishlari va o‘qotar qurolni qo‘llashlari mumkin.

5. Kuch va o‘qotar quroldan qonuniy foydalanish muqarrar bo‘lgan hollarda huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslari quyidagi amallarni bajarishlari lozim:

- a) bunday foydalanishda o‘zini og‘ir-vazmin tutish va huquqbuzarlikning jiddiyligiga hamda erishish mumkin bo‘lgan qonuniy maqsadga mutanosib ravishda harakat qilish;
- b) zarar va jarohatlar, shikastlanishlarni imkon qadar past darajaga tushirish hamda inson hayotini hurmat qilish va saqlab qolish;
- c) har qanday yaralangan yoki jabrlanganlarga yordam va tibbiy yordamni imkoni boricha tezroq ko‘rsatilishini ta’minlash;
- d) jarohatlangan yoki jabrlangan shaxsning qarindoshlari yoki yaqin tanishlarini iloji boricha tezroq xabardor qilinishlarini ta’minlash.

6. Huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslari tomonidan kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llash natijasida shaxsga shikast yetkazish (yarador qilish) yoki o‘lim holati yuz beranida ushbu holatlar to‘g‘risida 22-tamoyilga muvofiq holda o‘zlarining rahbarlarini darhol xabardor qilishlari lozim.



7. Hukumat huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabдор shaxslari tomonidan o‘zboshimchalik bilan yoki xizmat vakolatlarini suiiste’mol qilgan holda kuch ishlatgan va o‘qotar qurolni qo‘llagan vaziyatlarda qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlikka tortib jazolashni ta’minlashi lozim.

8. Ichki siyosiy beqarorlik yoki boshqa har qanday favqulodda vaziyat kabi istisno holatlar ushbu asosiy tamoyillardan har qanday chekinish uchun asos bo‘la olmaydi.

Maxsus qoidalar

9. Huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslar o'z-o'zini yoki boshqalarni bevosita o'lim tahdididan yoki badanga og'ir shikast yetkazishdan himoya qilish, o'ta og'ir jinoyat sodir etilishining oldini olish, hayotga katta xavf tug'diruvchi jinoyatchilarni qo'lga olish, shuningdek, bunday xavf tug'diradigan va ularga hokimiyatga qarshilik ko'rsatish yoki ularning qochishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida va faqatgina ushbu maqsadlarga erishish uchun kamroq ekstremal choralar yetarli bo'lмаган holatlaridan tashqari vaziyatlarda shaxslarga qarshi o'qotar quroq qo'llashlari mumkin emas. Har qanday holatda o'limga olib keladigan o'qotar quroqni qasddan qo'llash faqatgina hayotni himoya qilish uchun mutlaqo muqarrar bo'lган holdagini amalga oshirilishi mumkin.

10. 9-tamoyilda nazarda tutilgan hollarda huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari o'zlarini shunday tarzda namoyon etishlari va o'qotar quroqni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish berishlari hamda ushbu ogohlantirishga javob reaksiyasi uchun yetarli darajada vaqt berishlari lozim, bundan huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari uchun nojo'ya xavf yoki o'lim tahdidi yoxud boshqa shaxslar uchun jiddiy zarar yetkazish holatlari, yoki ziddiyat keltirib chiqarish uchun joiz bo'lмаган yoki nojo'ya xatti-harakatlar bundan mustasno.



11. Huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslar tomonidan o'qotar quroqni qo'llash bo'yicha tartib va qoidalar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

a. huquqni muhofaza qiluvchi organlari mansabdor shaxslariga o'qotar quroqni o'zi bilan olib yurishga ruxsat berilgan holatlarni ko'rsatish va o'qotar quroq hamda o'q-dorilarni ruxsat berilgan turlarini qayd etish;

b. o'qotar qurollar faqat muayyan sharoitlarda va keraksiz zarar yetkazish xavfini kamaytiradigan tarzda qo'llanilishini ta'minlash;

c. asossiz shikastlanishga olib keladigan yoki xavf tug'diruvchi o'qotar quroq va o'q-dorilardan foydalanishni taqiqlash;

d. o‘qotar qurollarni nazorat qilish, saqlash va berishni, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari mansabdar shaxslarining ularga berilgan o‘qotar qurol va o‘q-dorilar uchun javobgarligini ta’minlash jarayonlarini tartibga solish;

e. zarur hollarda o‘qotar quroldan foydalanish zarurligi to‘g‘risida ogohlantirishni ko‘zda tutish;

f. huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish paytida o‘qotar qurolni qo‘llash holatlari to‘g‘risida xabar berish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Noqonuniy yig‘ilishlarga qarshi kurashish

12. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro paktda keltirilgan tamoyillarga muvofiq har bir insonga qonuniy va tinch yig‘ilishlarda ishtirok etishga ruxsat berilganligi munosabati bilan hukumatlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mansabdar shaxslar kuch ishlatish va o‘qotar quroldan foydalanish faqatgina 13,14-tamoyillarga muvofiq holda amalga oshirilishini tan olib, e’tirof etiladi.

13. Noqonuniy, lekin zo‘ravoniksiz yig‘ilishlarni tarqatishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari kuch ishlatishdan tiyilishlari kerak yoki bunday holatning amalda imkon bo‘lmagan taqdirda bunday kuch ishlatish zarur bo‘lgan minimal darajada cheklanishi lozim.



14. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari zo‘ravonlik bilan o‘tkazilgan yig‘ilishlarni tarqatishda xavfsizroq vositalarni qo‘llash imkoniyati bo‘lmagandagina o‘qotar qurolni zarur darajada minimal hajmda qo‘llashlari mumkin. Huquq-tartibot organlari mansabdar shaxslari tomonidan 9-tamoyilda bayon etilgan shartlardan tashqari hollarda o‘qotar qurol qo‘llanilmaydi.‘

Politsiyaning hibsga olingan yoki ushlab turilgan shaxslar bilan olib boradigan faoliyati



15. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari mansabdar shaxslarining hibsda saqlanayotgan yoki ushlab turilgan shaxslar bilan muomala qilishda kuch ishlatmasliklari kerak, muassasada xavfsizlik va tartibotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yoki shaxsiy xavfsizlikka tahdid mavjud bo'lgan hollar bundan mustasno.

16. Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar hibsda saqlanayotgan shaxslar bilan muomala qilganda o'qotar quroldan foydalanmasliklari kerak, 9-tamoyilga muvofiq o'zini himoya qilish yoki boshqalarni bevosita o'lim yoki badanga og'ir shikast yetkazish tahdididan himoya qilish, shuningdek hibsga olingan shaxsni qochib ketishini oldini olish uchun o'ta zarur hollar bundan mustasno.

17. Yuqorida bayon etilgan tamoyillar mahbuslar bilan muomala qilishning Minimal standart qoidalarida, xususan 33,34 va 54-qoidalarida belgilangan qamoqxona xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va ma'suliyatlariga zarar yetkazmaydi.

Malaka oshirish, o'qitish, konsultatsiya

18. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha xodimlarini belgilangan tartib-qoidalar orqali tanlashni, o'z xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun tegishli ma'naviy, psixologik va jismoniy fazilatlarga ega bo'lishini, uzlusiz va puxta tayyorgarlikdan o'tishlarini ta'minlashlari shart. Ularning ushbu funksiyalarni bajarishga yaroqliligi davriy tekshirib turilishi lozim.

19. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha xodimlarini kuch ishlatish bo'yicha tegishli malaka standartlariga muvofiq



holda o‘qitishni hamda tekshirishni ta’minlashlari lozim. O‘zi bilan o‘qotar qurol olib yurishi shart bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga qurolni qo‘llash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgandan keyingina ruxsat berilishi lozim.

20. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini tayyorlashda hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlari politsiya etikasi va inson huquqlari masalalariga alohida e’tibor qaratishlari lozim, ayniqsa, tergov jarayonida, kuch ishlatish va o‘qotar quroldan foydalanishning muqobil usullari, jumladan, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, olomon xatti-harakatlarini tushunish, ishontirish uslublari, muzokaralar va vositachilik hamda texnik vositalardan o‘qotar qurol va kuch ishlatilishini cheklash maqsadida foydalanishni ta’kidlashlari lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari o‘zlarining o‘quv dasturlari va operativ tartib-qoidalarini aniq hodisalarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqishlari lozim.



21. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar kuch ishlatiladigan va o‘qotar qurol qo‘llaniladigan vaziyatlarga daxldor huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlariga stress bo‘yicha maslahatlar berishlari kerak.

Hisobot va tekshirish tartiblari

22. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar 6 va 11-tamoyillarda nazarda tutilgan barcha hodisalar bo‘yicha samarali hisobot berish va ko‘rib chiqish tartib qoidalarini ishlab chiqishlari va o‘rnatishlari lozim. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ushbu tamoyillarga muvofiq xabar qilingan hodisalar bo‘yicha samarali tekshiruv jarayoni mavjudligini va mustaqil ma’muriyat yoki prokuratura organlari tegishli sharoitlarda yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkinligini ta’minlashlari lozim. O‘lim holatlari, og‘ir shikastlanishlar yoki boshqa jiddiy oqibatlar ro‘y bergan taqdirda, ma’muriy nazorat va sud kontroli uchun mas’ul bo‘lgan vakolatli organlarga zudlik bilan bat afsil hisobot yuborilishi kerak.

23. Kuch va o‘qotar quroq qo‘llanilishi natijasida jabrlangan shaxslar yoki ularning qonuniy vakillari mustaqil jarayonda, shu jumladan sud prosessida ham qatnashishi va ushbu jarayon bilan bevosita tanishishi mumkin. Bunday shaxslar vafot etgan taqdirda, ushbu qoida tegishli ravishda ularning qaramog‘idagi shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.


24. Yuqori mansabdar shaxslarni o‘z qo‘mondonligi ostidagi huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar kuch ishlatish va o‘qotar qurolni qo‘llashni oldini olish, to‘xtatish yoki xabar berish bo‘yicha o‘zlariga tegishli bo‘lgan barcha choralarini ko‘rmasdan qonunga xilof ravishda kuch ishlatish va o‘qotar quroq qo‘llanilganligini yoki qo‘llamoqchi ekanligini bilgan hollarda ta’sir o‘tkazish choralarini ko‘rmagan bo‘lsalar hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlari javobgarlikka tortishni ta’minlashi lozim.

25. Hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlari huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslarining xulq-atvori bo‘yicha Kodeksga va ushbu asosiy tamoyillarga muvofiq kuch va o‘qotar quroq qo‘llash to‘g‘risidagi buyruqni bajarishdan bosh tortgan yoki boshqa mansabdar shaxslar tomonidan bunday foydalanish holatlari ro‘y bergenligi haqida xabar bergen huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslariga nisbatan jinoiy yoki intizomiy jazo choralarini qo‘llanilmasligini ta’minlashlari shart.

26. Agar huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslari inson o‘limiga yoki og‘ir tan jarohati olishiga sabab bo‘lgan kuch ishlatish va o‘qotar quroq qo‘llash to‘g‘risidagi buyruq atayin qonunga xilof ekanligini bilsalar va uni bajarishdan bosh tortish uchun asosli imkoniyatga ega bo‘lsalar, yuqori turuvchi boshliqlarning buyrug‘ini bajarish himoya hisoblanmaydi. Har qanday holda qonunga xilof ravishda buyruq bergen mutasaddi shaxslar ham javobgarlikka tortiladilar.



**1.3-§ HUQUQNI TA’MINLOVCHI
MANSABDOR SHAXSLARNING XULQ-ATVOR
BO‘YICHA KODEKSI (BMT Bosh Assambleyasining
1979-yil 17-dekabrdagi 34-169-sonli rezolyutsiyasi bilan
qabul qilingan)**



Quyida keltiriladigan izohlar va sharhlar milliy qonunchilik va amaliyot doirasida Kodeksni bajarilishiga yordam berish maqsadida axborot taqdim etadi. Bundan tashqari, milliy yoki mintaqaviy izohlarda Kodeksni qo‘llashga turki bo‘luvchi turli davlatlar yoki mintaqaviy hukumatlararo tashkilotlarning huquq tizimlari yoki amaliyotining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘lishi mumkin.

1-modda. Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar har doim qonun bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o‘z kasbi talab qiladigan yuqori darajadagi mas’uliyat asosida jamiyatga xizmat qilib, barcha shaxslarni qonunga xilof xatti-harakatlardan himoya qiladilar.



Izoh:

a) “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar” atamasi politsiya vakolatlariga, ayniqsa, huquqbuzarlarni ushslash vakolatiga ega bo‘lgan barcha tayinlangan yoki saylangan mansabdor shaxslarni o‘z ichiga oladi;

b) Politsiya vakolatlari formali xizmat kiyimi yoki fuqaroviy kiyimdagi harbiy hokimiyat vakillari yoki davlat xavfsizlik kuchlari tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatlarda “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar” ta’rifi bunday xizmatlar xodimlarini o‘z ichiga qamrab oladi;

c) Jamiyatga xizmat qilish, xususan, shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki favqulorra xarakterdagi sabablarga ko‘ra, zudlik bilan yordamga muhtoj bo‘lgan jamiyat a’zolariga xizmat va yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi;

d) Ma’lum bo‘lishicha, ushbu qoida nafaqat barcha zo‘ravonlik, bosqinchilik yoki zararli harakatlarni qamrab oladi, balki, jinoyat qonunlarida belgilangan barcha

taqiqlarga ham taalluqlidir. Bu qoida jinoiy javobgarlikka layoqatsiz shaxslarning xulq-atvoriga nisbatan ham qo'llaniladi.

2-modda. Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan paytlarida inson qadr-qimmatini hurmat va himoya qiladilar hamda barcha shaxslarga nisbatan inson huquqlarini qo'llab-quvvatlab, himoya qiladilar.



Izoh:

a) Ko'rsatib o'tilgan inson huquqlari milliy va xalqaro huquq bilan o'rnatiladi va himoya qilinadi. Tegishli xalqaro hujjatlar qatoriga inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlari bo'yicha Xalqaro pakt, qiyonoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid va qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya, Birlashgan Millatlar Tashkilotining irqiy kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, aparteid jinoyatini to'xtatish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiya, genotsid jinoyatini oldini olish va bu jinoyat uchun jazolash to'g'risidagi Konvensiya, mahbuslarga nisbatan muomala qilishning Minimal standartlari va konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasi kiradi;

b) Ushbu qoida bo'yicha milliy sharhlarda bu huquqlarni belgilovchi va himoya qiluvchi mintaqaviy yoki milliy qoidalar ko'rsatilishi lozim.

3-modda. Huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar faqat o'ta zarur hollarda va o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan darajada kuch ishlatishlari lozim.



Izoh:

a) Ushbu qoida huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxslar tomonidan kuch ishlatish istisno tarzda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, garchi bu qoida mansabdar shaxslarga jinoyatni oldini olish yoki jinoyatchilarni yoki jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotganlarni qonuniy ravishda ushlash uchun kerakli sharoitlarda zarur bo'lgan oqilona kuch ishlatish huquqiga ega bo'lishi mumkinligini yoki bunday

ushlashda yordam ko‘rsatishda ushbu maqsadlar uchun zarur bo‘lgan chegaradan ortiq kuch ishlatmasligi kerakligini nazarda tutadi.

b) Milliy qonunchilik odatda mutanosiblik tamoyiliga muvofiq huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar tomonidan kuch ishlatilishini cheklaydi. Bu shuni anglatadiki, ushbu qoidani talqin qilishda milliy mutanosiblik tamoyillariga riosa qilish e’zozlanishi lozim. Ushbu qoida hech qanday tarzda erishmoqchi bo‘lgan qonuniy maqsadga nomutanosib bo‘lgan kuch ishlatishga ruxsat beruvchi sifatida talqin etilmasligi darkor.

c) O‘qotar quroldan foydalanish oxirgi chora hisoblanadi, ayniqsa, bolalarga qarshi quroldan foydalanishning oldini olish uchun barcha choralarни ko‘rish kerak. Umumiy qoidaga ko‘ra, agar jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan huquqbazar shaxs qurolli qarshilik ko‘rsatmasa yoki boshqalarning hayotiga xavf tug‘dirmasa va gumon qilinayotgan jinoyatchiga qarshilik ko‘rsatish yoki ushslash uchun boshqa kamroq darajadagi ekstremal choralar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘qotar quroq ishlatilmasligi lozim. O‘qotar quroldan foydalanganlik to‘g‘risidagi har qanday holat bo‘yicha darhol vakolatli hokimiyatlarga xabar berilishi kerak.

4-modda. Huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar olingan maxfiy ma’lumotlarni agar o‘z vazifalarini bajarish yoki odil sudlov talablari boshqacha tartibini nazarda tutmagan bo‘lsa, sir saqlaydilar.



Izoh:

Huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar o‘z vazifalarining mohiyatiga ko‘ra, boshqalarning shaxsiy hayotiga taalluqli yoki bunday shaxslarning manfaatlariga, ayniqsa, ularning obro‘siga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni oladilar. Faqat xizmat burchini bajarish yokiadolat maqsadlarida oshkor qilinadigan bunday ma’lumotlarni saqlash va foydalanishda juda ehtiyyotkor bo‘lishlari talab etiladi. Bunday ma’lumotlarni boshqa maqsadlarda oshkor qilish qonunga mutlaqo zid hisoblanadi.

5-modda. Hech bir huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxs qiyonoqlar yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazolashni o'z ichiga oluvchi har qanday xatti-harakatni amalga oshirishi, qo'zg'atishi yoki toqat qilishi mumkin emas, shuningdek, hech bir huquqni ta'minlovchi mansabdar shaxs boshliqlarning buyrug'iga yoki urush holati yoxud urush tahdidi, milliy xavfsizlikka tahdid, ichki siyosiy beqarorlik yoki boshqa har qanday favqulodda holatlar singari istisno holatlarga tayangan holda oqlash uchun qiyonoqlar, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazolarni qo'llash uchun murojaat qilishi mumkin emas.



Izoh:

a) Ushbu taqiq Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan qiyonoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid va qadr qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Deklaratsiyasidan kelib chiqadi. Unga muvofiq:

“Bunday xatti-harakat inson qadr-qimmatiga tajovuzdir va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining maqsadlarini buzish Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini buzish sifatida qoralanadi”;

b) Konvensiya qiyonoqlarga quyidagicha ta'rif beradi:

“Qiynoq deganda, mansabdar shaxs tomonidan yoki uning tashabbusi bilan shaxsdan yoki uchinchi shaxsdan ma'lumot olish yoki aybiga iqror bo'lishi, uning qilmishi uchun jazolash maqsadida shaxsga qasddan og'ir shikast yetkazish yoki jismoniy yoxud ruhiy azob yetkaziladigan har qanday harakat tushuniladi, agar bu shaxs yoki boshqa shaxslar gumon qilinayotgan yoki qo'rqtish bilan tahdid qilgan bo'lsa. Ushbu talqin mahbuslar bilan muomala qilishning Minimal standart qoidalariga muvofiq darajada faqat qonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish natijasida kelib chiqadigan og'riq yoki azob-uqubatlarni o'z ichiga olmaydi”;

c) “Shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazo” iborasi Bosh Assambleya tomonidan belgilanmagan, ammo, jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikdan maksimal darajada himoyalanishini ta’minlaydigan tarzda talqin qilinishi kerak.

6-modda. Huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar o‘zlarini tomonidan qamoqda saqlanayotgan shaxslarning sog‘lig‘ini to‘liq himoya qilishni ta’minlaydilar, xususan, zarur hollarda tibbiy yordam ko‘rsatishni ta’minlash bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘radilar.



Izoh:

a) “Tibbiy yordam” tushunchasi, bu har qanday tibbiy xodimlar, shu jumladan, tegishli guvohnomaga ega bo‘lgan amaliyotchi shifokorlar va tibbiy yordam xodimlari tomonidan zarur bo‘lgan hollarda yoki so‘rovga javoban ko‘rsatiladigan xizmatlarni anglatadi;

b) Tibbiyot xodimlari odatda huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tayinlanganligi sababli, huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan tibbiy xodimlar orqali yoki ular bilan maslahatlashgan holda zarur hollarda hibsga olgan shaxsga tegishli tibbiy yordam ko‘rsatishni tavsiya qilganda, ushbu xodimlarni kiritish masalasini ko‘rib chiqishlari kerak;

c) Ma’lumki, huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar huquqbuzarliklar sodir etilishi jarayonida yuzaga kelgan huquqbuzarliklar yoki baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatadilar.

7-modda. Huquqni ta’minlovchi mansabdar shaxslar korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga yo‘l qo‘ymaydilar. Shuningdek, ular korrupsiyaning har qanday aktlariga to‘sinqilik qiladilar va bu holatlar bilan qat’iy ravishda kurash olib boradilar.



Izoh:

a) Har qanday korrupsiya xatti-harakati, vakolatni suiiste'mol qilish kabi holatlar huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslarning xizmat mavqeiga mos kelmaydi. Qonun korrupsiyaga yo'l qo'ygan har qanday mansabdor shaxsga to'liq tatbiq etilishi lozim, chunki hukumat o'z mansabdor shaxslari va o'z institutlari doirasida qonun ustuvorligini ta'minlashga qodir bo'lmasa yoki xohlamasa, ular fuqarolardan qonun ustuvorligini hurmat qilishlarini kuta olmaydilar;

b) Garchi korrupsiya tushunchasi milliy qonunchilikka muvofiq ta'riflanishi kerak bo'lsa-da, shuni tushunmoq kerakki, mansabdor shaxs tomonidan o'z vazifalarini bajarishda yoki ushbu majburiyatlardan kelib chiqadigan sovg'alar, va'dalar yoki rag'batlantirish natijasida biron-bir harakat yoki harakatsizlik evaziga ularni noqonuniy ravishda olinishi yoki qabul qilinishini ko'zda tutadi.

c) Yuqorida tilga olingan "korrupsiya akti" iborasi pora berishga urinish deb tushunilishi kerak.

8-modda. Huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslari qonun va ushbu Kodeksni hurmat qiladilar. Shuningdek, ular o'zlarining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda bu kabi buzilishlarning har tomonlama oldini oladilar va to'sqinlik qiladilar.

Ushbu Kodeksning buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb hisoblash uchun asosga ega bo'lgan huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslari ushbu hodisa to'g'risida yuqori turuvchi organlarga, zarur hollarda esa boshqa tegishli organlar yoki nazorat yoki huquqiy nazorat vakolatiga ega bo'lgan organlariga xabar berishlari shart.



Izoh:

a) Ushbu Kodeks milliy qonunchilik yoki amaliyotga kiritilgan barcha hollarda bajarilishi lozim. Agar qonunchilikda yoki amaliyotda ushbu Kodeksdagidan qat'iyroq qoidalar nazarda tutilgan bo'lsa, birinchisiga rioya qilinishi kerak.

b) Ushbu modda bir tomondan jamoat xavfsizligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan muassasada ichki intizomga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa tomondan asosiy inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurashish zarurati o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan. Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar qonunbuzarliklar to‘g‘risida instansiyalar bo‘yicha xabar beradilar va boshqa barcha variantlar mavjud bo‘lmaganda yoki samarasiz bo‘lgan taqdirdagina instansiyalardan tashqarida boshqa qonuniy chora ko‘radilar. Ma’lumki, huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar ushbu Kodeksning buzilishi yoki bunday huquqbuzarlik ehtimoli to‘g‘risida xabar bergenliklari uchun ma’muriy yoki boshqa jazoga tortilmaydilar.

c) “Nazorat yoki huquqiy kontrol vakolatiga ega bo‘lgan tegishli instansiyalar yoki organlar” tushunchasi milliy qonunchilikka muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi organ tarkibida yoki unga bog‘liq bo‘lman holda mavjud bo‘lgan qonun bilan belgilangan odatiy yoki boshqa vakolatlarga ega bo‘lgan, shu munosabat bilan Kodeks doirasidagi buzilishlar bo‘yicha shikoyat va e’tirozlarni ko‘rib chiqadigan har qanday muassasani o‘z ichiga oladi;

d) Ba’zi mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari yuqoridagi “c” kichik bandida tavsiflanganlarga o‘xhash shikoyatlarni ko‘rib chiqish funksiyalariga ega, deb hisoblanishi mumkin. Binobarin, huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar o‘z davlatlarining qonunlari va urf-odatlariga, shuningdek, ushbu Kodeksning 4-moddasi qoidalariga muvofiq oxirgi chora sifatida ushbu huquqbuzarliklarni ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik e’tiboriga yetkazishlari mumkin.

e) Ushbu Kodeks qoidalariga rioya qiluvchi huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar jamiyat va o‘zлari xizmat qilayotgan huquqni ta’minlovchi muassasa hamda huquqni ta’minlash bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslar tomonidan hurmat va izzatga sazovor bo‘ladilar va ular tomonidan to‘liq hajmda quvvatlanadilar va hamkorlik amalga oshiriladi.

**1.4-§ HUQUQNI TA’MINLOVCHI MANSABDOR
SHAXSLARNING XULQ-ATVORI BO‘YICHA
KODEKSINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH
UCHUN RAHBARIY TAMOYILLAR (BMT Iqtisodiy va
Ijtimoiy Kengashining 1989-yil 24-maydagi
1989/61-rezolyutsiyasi asosida tasdiqlangan.)**



I. Kodeksni qo‘llash.

A. Asosiy tamoyillar.

1. Kodeksda mujassamlangan tamoyillar milliy qonunchilikda aks ettiriladi va amaliyotda qo‘llaniladi.

2. Kodeksning 1-moddasida va unga berilgan izohlarda belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun “huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxs” ta’rifi imkon qadar kengroq talqin etiladi.

3. Kodeks idoraviy mansubligidan qat’iy nazar barcha huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslariga nisbatan qo‘llaniladi.

4. Hukumat huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslarni boshlang‘ich tayyorgarlik davrida va keyingi barcha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida Kodeksga taalluqli milliy qonunchilik qoidalari, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi boshqa fundamental hujjatlar bilan tanishishlarini ta’minlash uchun zarur choralarini ko‘radilar.



B. Maxsus masalalar.

1. Tanlash, o‘qitish va tayyorlash. Huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslarni tanlash, o‘qitish va tayyorlashga muhim ahamiyat beriladi. Hukumat, shuningdek, mintaqaviy va mintaqalararo darajada samarali tajriba almashish orqali ta’lim berish va kadrlar tayyorlashga yordam beradilar.

2. Ish haqi va ish sharoitlari. Huquqni ta’minlovchi barcha mansabдор shaxslar munosib ish haqi, rag‘batlantirishlar va mehnat sharoitlari bilan ta’minlanadilar.

3. Intizom va nazorat. Ichki intizom va tashqi nazoratni ta'minlash uchun, shuningdek, huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish uchun samarali mexanizmlar ishlab chiqiladi.



4. Jamoatchilik vakillarining shikoyatlari. Yuqoridagi 3-bandda ko'rsatilgan mexanizmlar doirasida huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslariga nisbatan jamoatchilik vakillarining murojaatlari va shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish bo'yicha maxsus qoidalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi va bunday qoidalarning mavjudligi to'g'risida jamoatchilikka ma'lum qilinadi.

II. Kodeksni amalga oshirish

A. Milliy darajada.

1. Barcha huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslar va tegishli hokimiyat vakolatli organlari Kodeksning o'z ona tilidagi yuritishlari shart.

2. Hukumatlar Kodeksni va unga kiritilgan har qanday ichki qonunlarni undagi tamoyillar va huquqlardan xabardor bo'lishini ta'minlash uchun keng jamoatchilikka tarqatadilar.



3. Kodeksni amalga oshirishga yordamlashish chora-tadbirlarini ko'rib chiqishda hukumat huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslarning inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikni oldini olishdagi roli va funksiyalari (vazifalari)ga bag'ishlangan simpoziumlar tashkil qiladilar.

B. Xalqaro darajada.

1. Hukumat Bosh kotibni tegishli vaqt oralig'ida, biroq besh yilda kamida bir marta Kodeksning qo'llanilishi to'g'risida xabardor qiladi.

2. Bosh kotib ixtisoslashtirilgan idoralar, tegishli hukumatlararo tashkilotlar va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash bilan maqomga ega nodavlat notijorat tashkilotlarning fikr-mulohazalari va hamkorligini hisobga olgan holda Kodeksni amalga oshirishda erishilgan yutuqlar to'g'risida davriy hisobotlar tayyorlaydi.

3. Yuqorida sanab o‘tilgan ma’ruzalarning bir qismi sifatida hukumat Bosh kotibga Kodeksni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan qonunlar, qoidalar va ma’muriy yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalarning ko‘chirma nusxalarini, uni amalga oshirish bilan bog‘liq har qanday ma’lumotlarni va uni qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar, muammolarga oid ma’lumotlarni yuboradilar.

4. Bosh kotib yuqorida qayd etilgan hisobotlarni ko‘rib chiqish va zarurat tug‘ilganida keyingi chora-tadbirlar ko‘rish uchun Jinoatchilikni oldini olish va u bilan kurashish qo‘mitasiga taqdim etadi.

5. Bosh kotib Kodeks va ushbu Rahbariy tamoyillarni barcha davlatlar va tegishli hukumatlararo va nodavlat tashkilotlarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha rasmiy tillarida tarqatadi.


6. O‘zining maslahat xizmatlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining texnikaviy hamkorlik va rivojlantirish dasturlari doirasida:

a) Hukumat iltimosnomasi bo‘yicha Kodeks qoidalarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatish maqsadida ekspertlar, mintaqaviy va mintaqalararo konsultantlar (maslahatchilar) xizmatlarini taqdim etadi.

b) Kodeksga taalluqli masalalar, inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikni oldini olishda huquqni ta’minlovchi mansabдор shaxslarning roli va funksiyalari bo‘yicha milliy va hududiy (mintaqaviy) o‘quv seminarlari va boshqa yig‘ilishlarni (majlislarni) tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashadi.

7. Birlashgan Millatlar Tashkilotning mintaqaviy institutlariga Kodeks bo‘yicha seminarlar va o‘quv kurslarini tashkil etish, shuningdek, mintaqalarda mamlakatlarida Kodeksning qo‘llanilishi ko‘lami hamda bu borada yuzaga kelgan qiyinchiliklar yuzasidan tadqiqotlar olib borish joriy etiladi.

**1.5-§ POLITSIYA TO‘G‘RISIDAGI
DEKLARATSIYANI QABUL QILISH HAQIDA
690-REZOLYUTSIYA (Parlament Assambleyasi tomonidan
1979-yil 8-mayda qabul qilingan.)**



Assambleya:

1) Inson huquqlari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi va boshqa milliy va xalqaro hujjatlar bilan kafolatlangan inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to‘liq foydalanishning asosiy sharti jamoat tartibi va xavfsizligining afzalliklaridan foydalanadigan tinch jamiyatning mavjudligini e’tiborga oladi;



2) E’tirof etiladiki, politsiya barcha a’zo davlatlarda hayotiy muhim rol o‘ynaydi, chunki, politsiya xodimlari o‘z hayoti uchun xavf tug‘diradigan sharoitlarda ishlashga majbur bo‘ladilar va aniq belgilangan xatti-harakatlar qoidalari mavjud bo‘lmagan taqdirda, ularni o‘z vazifalarini bajarishi yanada qiyinlashadi;

3) Politsiyada xizmat qilayotgan paytda inson huquqlarini buzgan shaxslar yoki politsiya bo‘linmalarida ishlagan va aksilinsonparvarlik amaliyoti sababli xizmatdan ozod etilgan shaxslar politsiya xodimi lavozimida xizmat qilishi mumkin emasligini hisobga oladi;

4) Inson huquqlari va asosiy erkinliklari inobatga olingan holda hamma joyda politsiya kasbiy etikasi qoidalaring qabul qilinishi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha yevropacha tizimni takomillashuviga xizmat qilishini e’tiborga oladi;

5) Jamiyatga xizmat qilayotgan politsiya xodimlariga jamiyat tomonidan faol ruhiy, ma’naviy va jismoniy qo‘llab-quvvatlash zarurligini e’tirof qiladi;

6) Politsiya xodimlari ham davlat fuqarolik xizmati xodimlariga taqdim etilgan maqom va huquqlardan foydalanishlari kerakligini inobatga oladi;

7) Urush sharoiti va boshqa favqulodda vaziyatlar hamda xorijiy hukumat okkupatsiyasi holatida politsiya xodimlarining xulq-atvor, axloq qoidalarini shakllantirish maqsadga muvofiqligini nazarda tutadi;

8) Ushbu rezolyutsiyaning ajralmas qismi bo‘lgan quyida keltirilgan politsiya to‘g‘risidagi Deklaratsiyani qabul qiladi;

9) O‘zining parlament va jamoatchilik aloqalari bo‘yicha qo‘mitasi va o‘z huquqiy masalalar bo‘yicha Qo‘mitasi hamda Yevropa Ittifoqi Bosh kotibiga ushbu Deklaratsiyani maksimal tarzda yoritish va e’lon qilish bo‘yicha topshiriq beradi.

Politsiya to‘g‘risidagi Deklaratsiya

A. ETIKA

1. Politsiya xodimi qonun bilan belgilangan zo‘ravonlikdan, bosqinchilik va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlardan qonun tomonidan unga yuklatilgan fuqarolar va jamiyatni himoya qilish bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi lozim.

2. Politsiya xodimi halol, murosasiz va o‘z qadriyatini his qilgan holda harakat qilishi darkor. Xususan, u korrupsiyaning barcha alomatlaridan saqlanishi va bu holatlar bilan keskin kurashmog‘i lozim.

3. Har qanday holatda intizomiy choralar, qyynoqlar va murojaatlarni kamsituvchi yoki aksilinsonparvarlikning boshqa shakllari yoki jazolashlar taqiqlanadi. Politsiya xodimi ushbu holatlarni aks ettiradigan har qanday buyruq yoki yo‘riqnomani bajarishi yoki bo‘ysunishi kerak emas.

4. Politsiya xodimi o‘z boshlig‘i tomonidan belgilangan tartibda chiqarilgan buyruqlarga bo‘ysunishi va ularni bajarishi kerak, lekin u buyruqlarning qonunga xilof ekanligini bilsa yoki bilishi kerak bo‘lsa, ularni bajarishdan bosh tortishi lozim.

5. Politsiya xodimi qonun buzilishi faktlariga qarshi turishi kerak.

Agar huquqbuzarlik bevosita tuzatib bo‘lmaydigan va jiddiy zararga olib kelishi mumkin bo‘lsa, u darhol huquqbuzarlikni oldini olish uchun barcha choralarni ko‘rishi kerak.



6. Darhol va tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazish tahdidi bo‘lmasa, u o‘zining bevosita rahbarlariga vaziyat to‘g‘risida xabar berish orqali huquqbuzarlik oqibatlarini yoki uni takrorlanishining oldini olish choralarini ko‘rishi shart. Agar, bu harakatlar kerakli natijalarga olib kelmasa, u yuqori rahbariyatga murojaat qilishi mumkin.

7. Noqonuniy buyruqni bajarishdan bosh tortgan politsiya xodimiga nisbatan hech qanday jinoiy yoki intizomiy jazo choralar qo‘llanishi mumkin emas.

8. Politsiya xodimi qonunga xilof harakatlar sodir etganlikda gumon qilinmasa ham qidiruvda bo‘lgan, irqi, dini yoki siyosiy mansubligiga ko‘ra taqibga uchragan shaxslarni qidirish, hibsga olish, himoya qilish yoki kuzatib borishda yordam bermasligi kerak.

9. Politsiya xodimi o‘z harakatlari va uning rahbarligi, ko‘rsatmasi ostida sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun shaxsiy javobgarlik yuritiladi, shaxsan javobgar bo‘lishi kerak.

10. Aniq buyruqlar, topshiriqlar zanjiri bo‘lishi kerak. Politsiya xodimining harakatlari yoki harakatsizligi uchun pirovardida javobgar boshliqni aniqlashni har doim imkon bo‘lishi kerak.

11. Qonun hujjatlarida politsiyaning harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy kafolatlar va chora-tadbirlar tizimi nazarda tutilgan holda aks ettirilishi lozim.

12. Politsiya xodimi o‘z xizmat vazifalarini bajarishda qonun bilan belgilangan yoki ruxsat etilgan maqsadga erishish uchun qat’iy harakat qilishi, faqat oqilona kuch ishlatsihi kerak.



13. Politsiya xodimlari qurolni qo'llash usuli va sharoitlari bo'yicha yaqqol va aniq ko'rsatmalar olishlari lozim.

14. Politsiya xodimi murojaatiga ko'ra tibbiy yordamga muhtoj qo'riqlanayotgan shaxsga tibbiyat xodimi tomonidan tibbiy yordam ko'rsatilishi lozim va zarur hollarda ushbu shaxsning hayoti va salomatligini saqlab qolish bo'yicha kerakli choralar ko'riliishi lozim. U ushlab turilgan shaxsni tibbiy kuzatuv ostiga topshirayotgan paytda shifokorlar va boshqa salohiyatli tibbiy xodimlar ko'rsatmalariga rioya etishi kerak.

15. Agarda bajarilayotgan vazifalar yoki huquqiy normalar holatning o'zida aks ettirilmagan hollar bo'lganda, politsiya xodimi uning diqqat e'tibori qaratilgan barcha maxfiy materiallar sirini saqlashi lozim.

16. Ushbu Deklaratsiya qoidalarini bajarayotgan politsiya xodimi jamiyatdan faol ma'naviy va jismoniy qo'llab-quvvatlash olish huquqiga egadir.

B. Status

1. Politsiya qonunga muvofiq holda tashkil etilgan davlat xizmati hisoblanadi, uning vazifasi – huquq-tartibotni qo'llab quvvatlash va qo'riqlashdan iboratdir.

2. Belgilangan talablarga javob bera oluvchi har bir fuqaro politsiyada xizmat qilish uchun ishga kirishi mumkin.

3. Politsiya xodimi to'liq hajmda umumiyligi tayyorgarlikdan, kasbiy va xizmat tayyorgarligidan o'tishi lozim hamda ijtimoiy muammolar, demokratik erkinliklar, inson huquqlari va xususan, inson huquqlar bo'yicha Yevropa konvensiyasi yuzasidan tegishli yo'riqnomani olishi lozim.



4. Politsiya xodimi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishi lozim bo'lgan professional (kasbiy), psixologik va moddiy talablar o'z navbatida uning sharafi, g'ururi va murosasizligi, or-nomusi va sovuqqonligini himoya etishi lozim.

5. Politsiya xodimi yuqori darajadagi tavakkal qilish va me'yorga ega bo'lmagan ish vaqtiga grafigi kabi xizmat qilishning muhim omillarini hisobga olgan holda oshirilgan ish haqini olish huquqiga egadir.



6. Politsiya xodimlari kasaba uyushmasi tashkilotlarini tuzish huquqiga ega bo'lishlari lozim hamda ular ushbu tashkilotlarga a'zo bo'lishlari va bu tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari, politsiya xodimlari boshqa tashkilotlar ishida faol qatnashishlari mumkin.

7. Politsiya kasaba tashkiloti o'z vakillariga quyidagi huquqlarni kafolatlashi lozim:

- politsiya xodimlarining kasbiy maqomiga tegishli bo'lgan masalalarini hal qilish va ko'rib chiqishda ishtirok etish;
- maslahatlar olish uchun politsiya bo'linmalari rahbariyatiga murojaat qilish;
- politsiya xodimlari guruhi alohida politsiyachi manfaatlari yuzasidan sudlov yuritish ishlarini qo'zg'atish.

8. Politsiya kasaba tashkilotiga a'zolik va uning ishida faol ishtirok etish politsiyaning hech bir xodimiga zarar yetkazmasligi kerak.

9. Politsiya xodimiga nisbatan qo'zg'atilgan intizomiy yoki jinoiy ta'qib holati yuz berganida, ushbu politsiya xodimi o'z himoyasi uchun harakat qilishi va advokat xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega. Qaror oqilona muddatlarda qabul qilinishi lozim. Politsiya xodimi o'ziga qarashli kasaba tashkiloti yordamidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.



10. Politsiya xodimiga nisbatan intizomiy choralar ko'rilmaganida yoki jazo tayinlanganida ushbu holatlar bo'yicha u mustaqil va adolatli sudga shikoyat qilish bilan murojaat qilishga haqlidir.

11. Politsiya xodimi har qanday oddiy fuqaro kabi sud va tribunal oldida o'z huquqlaridan foydalanishi mumkin.

C. Urush va boshqa favqulodda vaziyat va hodisalar. Xorijiy hukumat tomonidan okkupatsiya.

1. Politsiya fuqarolar va mulkni himoya qilish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishda fuqaroviy aholi manfaatlarini ko‘zlagan holda urush davrida va dushman bosqinchiligi paytida ham davom ettirishi lozim.

Shu munosabat bilan u “kurashayotgan Tomon” maqomiga ega bo‘lmasligi kerak va unga 1949-yil 12-avgustdagи Jeneva konvensiyasining III qoidalari qo‘llanilmasligi lozim.

2. 1949-yil 12-avgustdagи Jeneva konvensiyasining urush davrida fuqaroviy shaxslarni himoya qilishga tegishli IV qoidalari fuqaro politsiyasiga nisbatan qo‘llaniladi.

3. Bosqinchi Tomon ushbu bo‘limning 1-bandida ko‘rsatilmagan vazifalarni bajarish bo‘yicha politsiya xodimlariga ko‘rsatmalar, topshiriqlar berishi mumkin emas.

4. Bosqinchilik davrida politsiya xodimlari quyidagi vazifalarni bajarmasliklari kerak:

- qarshilik harakati a’zolariga to‘sinqilik qilishga qaratilgan harakatlarda ishtirok etish;

- harbiy maqsadlar va harbiy obyektlarni qo‘riqlash uchun aholidan foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

5. Yuqorida ta’rif berilgan fuqaroviy aholi manfaatlariga zid ravishda noqonuniy topshiriqni bajarishga majburlangan politsiya xodimi dushman bosqinchiligi davrida iste’foga chiqqan bo‘lsa va u bundan boshqa yo‘l va chorasi yo‘qligi sababli shunday harakat qilgan taqdirda, bosqinchilik tamom bo‘lgandan so‘ng, u darhol o‘zining shaxsiy huquqlari va daromadlariga zarar yetmagan holda politsiya xodimi lavozimiga qayta tiklanishi lozim.

6. Bosqinchilik davri va bu davr tamom bo‘lganidan keyin o‘sha davrda qonuniy hisoblangan hukumatning topshiriqlarini chin dildan halol ado etgan va ushbu topshiriq, ko‘rsatma o‘zining majburiyatlarini bajarishi doirasiga kirgan politsiyachiga hech qanday jazo va intizomiy choralar ko‘rish taqiqlanadi.

7. Bosqinchi Tomon bosqingacha bo‘lgan davrdagi qonuniy hukumatlar buyruqlarini bajarganlari tufayli politsiya xodimlarini intizomiy va sud javobgarligiga tortish mumkin emas.



II BOB. ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA QUROL QO'LLASH BILAN BOG'LIQ MILLIY QONUNCHILIK



Mamlakatimizda huquqni ifodalashning asosiy shakli – normativ-huquqiy hujjatlardir. **Normativ-huquqiy hujjatlar** davlat organlari tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, majburiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydigan huquqiy hujjatlarning alohida turidir.

Normativ-huquqiy hujjat deganda, davlat vakolatli organlarining ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi huquq ijodkorlik hujjati tushuniladi¹.

Qonunda esa, **normativ-huquqiy hujjatga**, qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir, deya ifodalangan².

Mazkur bobda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qotar qurol qo'llashda bevosita asos bo'luvchi milliy qonunchilikdagi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni keltiriladi. Ichki ishlar organi xodimi tomonidan o'qotar qurol qo'llanilishidagi kasbiy ideologiyasini shakllantirish uchun

¹ Davlat va huquq nazariyası: Darslik / Odilqoriyev X.T.; – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti, 2018-yil, 201-bet.

² O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni.

normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan huquqiy tartibotlarning ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonunining 7-moddasida (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi): “Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarining buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir”, deya ifoda etilgan.

Shuningdek, 6-moddasida (Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari):

“Normativ huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari¹.


Ushbu iyerarxik tartibotdan kelib chiqqan holda *ichki ishlar organlarida tomonidan quroq qo‘llash bilan bog‘liq milliy qonunchilik quyidagicha tus oladi:*

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 16-sentyabrdagi O‘RQ-407-son Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari;

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi 1996-yil 20-dekabr kunidagi 39-son Qarori;
- Ichki ishlar organining idoraviy normativ hujjatlari.

2.1-§ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI



Konstitutsiya – davlatning asosiy hujjati hisoblanib, davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartibi va tamoyillari davlat, jamiyat va fuqarolarning huquq hamda majburiyatlari u bilan belgilanadi¹. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oly qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida: “*O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oly yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar*”, deb ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo‘llash xususida so‘z yuritilmagan. Ammo, Konstitutsianing

¹ Konstitutsiya – bosh qomusimiz! (oltinsoy.uz)

16-moddasida “Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo‘limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.”, deya keltirib o‘tilgan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo‘llash bo‘yicha qonunchilikda mavjud tartibotlarni o‘zida aks ettirgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyada keltirilgan



prinsip va normalarga amal qiladi. Shu munosabat bilan, Konstitutsiya O‘zbekiston hududidagi eng oliv yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjat hisoblanib, sohaga oid barcha huquqiy asoslarning huquqiy asosini tashkil etadi. Konstitutsiyada keltirilgan ayrim

moddalarning dispozitsiyalari ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo‘llash jarayoniga bevosita taalluqlidir. Ichki ishlar organi xodimi xizmat faoliyatida qurol qo‘llash bilan bog‘liq vaziyatlarga to‘qnash kelsa, Konstitutsiyada keltirilgan quyidagilarni yodda tutmog‘i lozim:

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

13-modda. O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

25-modda. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

26-modda. Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qyynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

31-modda. Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.

Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.

54-modda. Insonning huquq va erkinliklarini ta’minalash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minalaydi.

2.2-§ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEksi (III bo’lim, IX bob, 37,38,39-moddalari)

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining III bo‘limi “Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar” deb nomlanib, IX bobi “Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari”ga kiruvchi 37,38,39-moddalari ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo‘llashning huquqiy asoslarida keltirilgan tartibotlarni o‘z ichiga oladi. Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish ichki ishlar organi xodimining xizmat faoliyatida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tartibotlar hisoblanib, ularni puxta va to‘laqonli o‘zlashtirish xodimning xizmat samaradorligiga sezilarli darajada samaradorlikka erishishini ta’minlab beradi. Shu munosabat bilan, Jinoyat kodeksidagi qurol qo‘llash bilan bog‘liq tartibotlar turli xil misollar bilan batafsil keltirish maqsad qilingan.



O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq, ayrim zararli oqibatlarni keltirib chiqaruvchi qilmishlar jinoyat deb topilmaydi. Garchi, ular tashqi ko‘rinishidan jinoyatga o‘xshasa-da, lekin Jinoyat kodeksi qo‘ygan talab va shartlar doirasidan chetga chiqmagan holda zarar yetkazganligi bois jinoyat deb topilmaydi. Shu sababli, qonun chiqaruvchi jinoyat belgilariga ega bo‘lgan har qanday qilmishni ham jinoiy va jazoga loyiq deb topmaydi. Inson ayrim hollarda tashqi tomondan u yoki bu jinoyatga o‘xshash harakatlar sodir etishi mumkin. Ammo, bu zararli oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlarni u zarar yetkazishi aniq bo‘lgan xavf-xatarni bartaraf etish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishni oldini olish uchun, bunday qilmish sodir etgan shaxsni ushslash, buyruqni yoki o‘z majburiyatini bajarish vaqtida, shuningdek, kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishi orqali amalga oshirishi mumkin. Jumladan, hayotiga tajovuz qilayotgan tajovuzchidan o‘zini himoya qilayotgan shaxs hujum qiluvchining badaniga og‘ir shikast yetkazishi, fuqarolar yong‘inni o‘chirish vaqtida boshqa shaxslarning mulkiga ziyon yetkazishi, ichki

ishlar organlari xodimi odam o‘ldirgan shaxsni ushslash vaqtida uning badaniga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazishi va shunga o‘xhash misollarni keltirish mumkin.

Qonunda belgilangan aniq shartlarga rioya qilib zarar yetkazilgan bo‘lsa, bu kabi harakatlar jinoyat sifatida ko‘rib chiqilmaydi va shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Aksincha, ular shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi uchun ijtimoiy jihatdan foydali qilmish deb topiladi¹.

1. Jinoyat kodeksi Umumiy qismining to‘qqizinchи bobida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar va ularning turlari ifodalangan. Qonunda belgilanganidek, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi (JK-35m).

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning bunday ta’rifi katta ahamiyatga ega. Chunki, bu tushuncha orqali qonun chiqaruvchi “qilmishni jinoiyligini istisno qiladigan holatlar”ni “jinoyat” tushunchasi bilan taqqoslaydi.

Ushbu taqqoslash orqali aytish mumkinki, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar (o‘zining kam ahamiyatligiga ko‘ra) ijtimoiy xavfli bo‘lmaydi yoki qonun ruxsat etilganligi sababli (zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish) qonunga xilof hisoblanmaydi yoki ayrim harakatlarni bajarish natijasida zarar yetkazish (buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo‘jalik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik) qonunda aybli hisoblanmaydi. Ushbu qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning har biri uchun qonun chiqaruvchi o‘ziga xos talab va shartlarni qo‘ygan. Qonun bilan belgilangan shartlarga rioya qilingandagina sodir etilgan harakat qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar kabi huquqiy baholanadi. Agar qonun talab qilgan shartlar buzilgan bo‘lsa, qilmish jinoiylikni istisno qiladigan holat kabi baholanmaydi.

¹ Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Darslik / Yakubov A.S. va boshqalar; - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, 257-b.

37-modda. Zaruriy mudofaa

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi. Tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so‘rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o‘zga yo‘sinda qutulish imkoniyati bor-yo‘qligidan qat’i nazar, zaruriy mudofaa huquqi shaxsga tegishlidir. Zarar yetkazish maqsadida qasddan hujum qilish istagini qo‘zg‘atish zaruriy mudofaa deb topilmaydi¹.



“Jinoyat huquqi (Umumiy qism)“ darsligida zaruriy mudofaa bilan bog‘liq quyidagi fikrlar batafsil bayon etilgan: “Jinoyat huquqi fuqarolarga qonun doirasida o‘z haq-huquqlarini himoya qilish, kerak bo‘lgan holatlarda esa tajovuzchiga zarar yetkazib himoyalanish huquqini beradi. Zarar yetkazib himoyalanish huquqini fuqarolarga berish O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi., jumladan amaldagi Konstitutsiyaning 31-moddasida “har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega”, deb belgilab qo‘yilgan.

Davlat fuqarolarning tajovuzchiga zarar yetkazib himoyalanish huquqlarini jinoyat qonuni bilan kafolatlaydi va bu huquq zaruriy mudofaa instituti sifatida mustahkamlab qo‘yilgan.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilingan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: Adolat, 2023;

harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi (JK 37-m, 1-q.).

Zaruriy mudofaaga o‘tish huquqi davlat idoralarida jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi xodimlariga ham, oddiy fuqarolarga ham bir xil berilgan. Zaruriy mudofaa – subyektiv huquq bo‘lib, har qanday fuqaro undan foydalanishi yoki voz kechishi mumkin. Shaxs bu huquqdan voz kechib foydalanmasa yoki undan foydalansa hech qanday huquqiy oqibat kelib chiqmaydi, ya’ni qonun bilan ta’qib qilinmaydi.

Ammo ayrim toifadagi shaxslarning egallab turgan lavozimi yoki xizmat majburiyatlari ularga jinoyatchilikka qarshi kurash vazifasini yuklasa, bunday shaxslar uchun zaruriy mudofaaga o‘tish majburiy hisoblanadi, shuning uchun ular fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini faol himoya qilishdan bo‘yin tovlay olmaydilar.

Zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarga jinoyatchilikka qarshi mustaqil kurashish, hatto hujum qilgan shaxsga kuch ishlatishtan ham qaytmaslik uchun keng imkoniyat yaratadi. Qonunning bunday imkoniyat berishi fuqarolarning jinoyatchilikka qarshi faol kurash olib borishlariga salmoqli hissa qo‘sadi va jinoyatchilikning oldini olish vositalaridan biri hisoblanadi. Fuqaroning hujumdan faol mudofaanish huquqini bilgan jinoyatchi, asossiz ravishda qaqshatqich zarba olishdan cho‘chib, o‘z jinoiy niyatidan qaytishi mumkin.

Jinoyat huquqi fani va sud amaliyoti tajovuz va undan himoyalanishga oid bir qator qoidalarni ishlab chiqqan bo‘lib, qilmishni zaruriy mudofaa deb huquqiy baholash uchun ushbu shartlarga mudofaanayotgan shaxs rioya qilmaslik, yetkazilgan zararning qonuniyligi va zaruriy mudofaa holatini istisno qiladi.

Zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlari ikkiga – tajovuzga nisbatan va mudofaaga nisbatan shartlarga bo‘linadi.

Tajovuzga taaluqli bo‘lgan shartlar tajovuzning huquqiy tabiatini, vaqt doirasi va haqiqiyligini tavsiflaydi va o‘z navbatida uchga bo‘linadi:

- tajovuzning qonunga xilofligi;
- tajovuzning boshlangan va tugallanmaganligi;



- tajovuzning haqiqiyligi.

Mudofaaga taalluqli shartlar uning ijtimoiy maqsadini, yo'l qo'yiladigan zararning chegarasi va bunday zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini tavsiflaydi va o'z navbatida uchga bo'linadi:

- shaxs, o'zini boshqa shaxsni, davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida harakat qilishi;

- mudofaa vaqtida zarar faqat tajovuzchiga yetkazilishi;
- zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmasdan zarar yetkazilishi.

Zaruriy mudofaaning tajovuzga nisbatan shartini ko'rib chiqamiz.

1. Tajovuzning qonunga xilofligi deganda, Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga qonunga xilof ravishda zarar yetkazayotgan qilmish tushuniladi.

Mudofaalanuvchining tajovuzchiga zarar yetkazish yo'li bilan qilgan harakatining qonuniyligi to'g'risida darak beruvchi muhim holat hujum qiluvchi qilmishining jinoiyligi yoki qonunga xilofligi fakti hisoblanadi. Demak, hujumda jinoyat alomatlari yoki boshqacha qonunga zid harakatlar aks etgan bo'lsagina tajovuz qiluvchiga zarar yetkazish mumkin. Bu talab Jinoyat kodeksi 37-moddasidagi zaruriy mudofaaga berilgan ta'rif va jinoyatning umumiy tushunchasidan (JK 14-m.) kelib chiqadi. Chunki, qonunga xiloflik, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlanganlik uning asosiy belgisi hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida" 1996-yil 20-dekabrda qabul qilgan 39-sonli qarorida ham ijtimoiy xavflilikka aynan shunday ta'rif berilgan: "Jinoyat kodeksining Maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortilgan yoki ruhiy kasallik tufayli, jinoiy javobgarlikka yoshga to'lmaganligi sababli va boshqa asoslarga ko'ra, javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat'iy nazar Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalanishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz deb hisoblanadi".

Oliy sudi Plenumining ushbu qaroridan ko‘rinib turibdiki, tajovuz keyinchalik jinoyat kabi huquqiy baholanishi yoki baholanmasligi mumkin. Eng asosiysi, u ijtimoiy xavfli bo‘lishi shart. Zaruriy mudofaaga o‘tgan shaxs tajovuzchining ruhiy kasalga chalinganligini bilgan yoki bilmaganligi, shuningdek, hujum qilayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetgan yoki yetmaganligini bilgan yoki bilmaganligi qilmishni zaruriy mudofaa deb baholashga ta’sir etmaydi.

Qonuniy harakatlardan o‘zini himoya qilib zarar yetkazish zaruriy mudofaani tashkil etmaydi. Masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimining qonuniy talablari, sud ijrochilarining harakatlari va boshqa shunga o‘xshash qonuniy harakatlardan o‘zini himoya qilish maqsadida zarar yetkazish zaruriy mudofaani tashkil etmaydi.

Shuni nazarda tutish kerakki, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 18-moddasida ma’muriy tartibbuzarlik sodir etayotgan shaxsga nisbatan ham zaruriy mudofaaga o‘tishga yo‘l qo‘yiladi. Ma’muriy tartibbuzarlikka qarshi zaruriy mudofaa ham o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra ma’muriy-huquqiy maqomga ega. Masalan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183-moddasida ko‘rsatilgan mayda bezorilik sodir etayotgan shaxsga jismoniy zarar yetkazish, ya’ni badanga yengil shikast yetkazish O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksni 18-moddasiga muvofiq, zaruriy mudofaa hisoblanadi.

2. Tajovuzning boshlanib, tugallanmaganligi.

Zaruriy mudofaaning ushbu sharti tajovuz qiluvchiga zarar yetkazib, faol qarshilik qilishga yo‘l qo‘yiladigan muayyan vaqt oralig‘ini aniq belgilab beradi. Bu vaqt oralig‘i tajovuzning boshlanishi bilan boshlanadi va tamom bo‘lishi bilan tugallanadi. Demak, qonun tajovuz boshlanib hali oxiriga yetkazilmagan vaqtda zarar yetkazish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Qonun ayrim holatlarda tajovuz boshlanishi aniq ammo hali boshlanmagan bo‘lsa ham zarar yetkazish huquqini beradi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi



qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida” 1996-yil 20-dekabrdan qabul qilgan 39-sonli qarorida shunday tushuncha beriladi: “Zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergan paytning o‘zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda ham vujudga keladi”. Demak, tajovuz aniq lekin hali boshlanmagan bo‘lsa ham shaxs o‘zini himoya qilib tajovuzchiga zarar yetkazishi mumkin. Masalan, tajovuzchi jabrlanuvchini o‘lidirishini aniq aytib, unga arqondan dor yasab turgan vaqtida, jabrlanuvchi dor yasayotgan shaxsga tan jarohati yetkazish orqali o‘z hayotini saqlab qolishi zaruriy mudofaa holatida yetkazilgan zarar kabi baholanadi.

Ayrim holatlarda tajovuzchi va himoyalanuvchining jismoniy imkoniyatlar deyarli bir xil bo‘ladi. Bunday vaziyatda tajovuzchining qo‘lidagi qurol himoyalanuvchiga o‘tib qolishi mumkin. Qurol himoyalanuvchining qo‘liga o‘tganidan so‘ng tajovuz to‘xtasa, himoya ham to‘xtatilishi shart. Agar to‘xtamasa, qo‘liga o‘tib qolgan qurol bilan o‘zini himoya qilishi mumkin. Hujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa ashylarning tajovuzchidan himoyalanuvchining qo‘liga o‘tib qolishining o‘zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi. Chunki, tajovuzchi ishlatishga uringan qurol o‘zaro kurash ketayotgan vaqtida himoyalanuvchining qo‘liga o‘tib qolgan taqdirda ham tajovuzchi hujumni davom ettirishi mumkin.

Amaliyatda sodir etilayotgan jinoyatlar va zaruriy mudofaaga o‘tish holatlarini umumiyligi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, himoyalanayotgan shaxs hamma vaqt ham tajovuzning tamom bo‘lgan vaqtini aniqlay olmaydi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida ta’kidlab o‘tilgan qarorida ushbu holatga aniqlik kiritib, “zaruriy mudofaa holati tajovuz tugaganidan so‘ng ham bo‘lishi mumkin, agar himoyalanuvchi ish holatlariga ko‘ra tajovuz tugagan vaqtini aniq anglay olmagan bo‘lsa”, deb tushuncha bergan. Vaziyatga ko‘ra, shaxs tajovuzning tugagan vaqtini aniq bilishi mumkin bo‘lmasa va bunday holatda zarar yetkazsa, bu holat zaruriy mudofaa deb huquqiy baholanadi. Masalan, shaxsga tajovuzchi o‘qotar quroldan bitta o‘q uzib hujum qildi va qurolni unga qaratib turibdi, ammo o‘qotar qurolda boshqa patron yo‘q. Bu holatda shaxs qurolda patron

bor deb o‘yaydi va mudofaaga o‘tib tajovuzchiga zarar yetkazadi, bunda zarar zaruriy mudofaa holatida yetkazilgan deb baholanadi.


Ishning holatiga ko‘ra tajovuzning tugagani aniq bo‘lsa, ya’ni tajovuz allaqachon tamom bo‘lgan, tajovuz qilganga nisbatan zo‘rlik ishlatishning zarurati bo‘lman holda zarar yetkazish zaruriy mudofaa sifatida baholanmaydi. Masalan, tajovuz qiluvchining qo‘lidan pichog‘i tushib ketdi va u qocha boshladi, jabrlanuvchi uni quvlab zarar yetkazishi umumiylasoslarda jinoiy javobgarlikka olib keladi. Bunday sharoitda zarar yetkazish sodir etilgan tajovuz uchun o‘ch olish deb baholanadi. Biroq, shunga o‘xhash holatlarda mudofaalanuvchining harakati kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan jinoyat deb baholanishi ham mumkin. Shu bois, bunday qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun tajovuz (hujum) qilgan va mudofaalanuvchi harakatlarining xususiyatini chuqur tahlil qilish kerak.

3. Tajovuzning haqiqiyligi. Tajovuzning haqiqiyligi deganda, tajovuzning haqiqatan ham voqelikda ro‘y berayotganligi tushuniladi. Tajovuz aniq, reallikda ro‘y berayotgan bo‘lishi shart.



Hujumning (tajovuzning) haqiqatan bo‘lganligini to‘g‘ri aniqlash uchun mudofaalanuvchining bo‘lib o‘tgan voqeani subyektiv idrok etish holatini tahlil etish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sud amaliyotida “hayoliy mudofaa” deb ataladigan holatlar mavjud bo‘lib, bunda shaxs voqelikda ro‘y bermagan tajovuzdan go‘yoki mudofaalanadi. Hayoliy mudofaa ham har bir vaziyatda chuqur tahlil qilinadi.



Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilish ham mumkin bo‘lman bo‘lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak. Masalan, shaxs sherigiga hazillashmoqchi bo‘lib, yuziga niqob kiyib, qo‘liga haqiqiy o‘qotar quroqla o‘xhash o‘yinchoqni olib, uyiga bostirib kirdi va ovozini o‘zgartirib o‘ldiraman, deb qo‘rqitdi. Sherigi bu hazilni haqiqiy hujum deb o‘ylab, o‘zini

himoya qilish maqsadida unga og‘ir shikast yetkazdi. Bunday holat zaruriy mudofaaga tenglashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida” 1996-yil 20-dekabrda qabul qilgan 39-sonli qarorining 10-bandida “agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va hayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko‘ra ham uni albatta bilishimumkin bo‘lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyyotsizlik oqibatida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim”ligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu ta’rifni kengroq sharhlaydigan bo‘lsak, shaxs tajovuz yo‘qligini bilmagan, aslida bilishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa yoki o‘zicha bu harakat tajovuz bo‘lsa kerak deb o‘ylasa, yetkazgan zarari xususiyatidan kelib chiqib ehtiyyotsizlik oqibatida odam o‘ldirish (JK 102-m.) yoki ehtiyyotsizlik oqibatida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish (JK 111-m.) jinoyati kabi huquqiy baholanadi. Masalan, ishdan kech qaytayotgan A.dan qorong‘i ko‘chada begona shaxs “chekishdan bormi?” deb so‘radi. A. “hozir menga hujum qilib narsalarimni tortib oladi” deb o‘ylab, uni qo‘lidagi tayoq bilan urib, badaniga og‘ir shikast yetkazdi. Bu holatda hech qanday tajovuz mavjud bo‘lmagan, A. esa hayoliy mudofaa holatida zarar yetkazgan. Lekim A. tajovuz yo‘qligini bilishi mumkin edi. Shu sababli ehtiyyotsizlik natijasida yetkazgan zarari uchun javobgarikka tortiladi (JK 111-m.).

Agar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki uni amalga oshirish rejasi tuzilayotganligi aniq bo‘lsa ham tajovuzning mavjudligi istisno qilinadi va bunday hollarda zarar yetkazish umumiylashtirilishi asoslarda jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Masalan, A. B. ni o‘ldirish uchun qurol sotib oldi va bundan xabar topgan B. kechasi borib unga tan jarohati yetkazishi zaruriy mudofaa sifatida baholanmaydi.

Tajovuz qilinishi ehtimoli inobatga olinib, oldindan qonun bilan taqiqlangan zarar yetkazish choralarini ko‘rish ham zaruriy mudofaani tashkil etmaydi. Masalan, bog‘dagi olmalarini o‘g‘irlanishdan saqlash maqsadida devorlar ustiga elektr toki ni

ulab qo‘yish. Bu himoya vositasi shaxslarga zarar yetkazsa, himoyani o‘rnatgan shaxs umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mudofaaga taalluqli zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlari quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy foydali maqsadning mavjudligi. Hujumni qaytarish vaqtidagi zarar yetkazishning asosiy maqsadi shaxs o‘zini, boshqa shaxsni, davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilishdan iborat.



Zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazayotgan shaxs birinchi navbatda o‘zini qonuniy manfaatlarini himoya qilib harakat qiladi, shu bilan birga, qonun boshqa shaxs, davlat va jamiyatning manfaatlarini himoya qilib, tajovuzchiga zarar yetkazishga ruxsat beradi. Zarar yetkazishdan maqsad faqat manfaatlarni himoya qilish bo‘lishi lozim.

Shaxsga nisbatan hech qanday tajovuz bo‘lmagan holatda, boshqa shaxsga qilinayotgan tajovuzni aniq bila turib, o‘sha shaxsni himoya qilish maqsadida qilinayotgan tajovuzchiga zarar yetkazish zaruriy mudofaa kabi baholanadi.

Agar shaxs boshqa maqsadlarda zarar yetkazsa yoki o‘ch olishni qasd qilgan holda ataylab shaxsning jahlini chiqarib, hujum qilishga majburlab, so‘ng zaruriy mudofaaga o‘tgan bo‘lsa, bu harakat zaruriy mudofaa kabi huquqiy baholanmaydi. Agar shaxs ziyon yetkazish (urishish, azob berish, o‘ch olish va boshqalar) niyatida hujuning kelib chiqishiga sababchi bo‘lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo‘sinda qilingan deb toppish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiy asosda tavsiflanishi lozim.

Tajovuz tugaganidan so‘ng, qochib ketayotgan tajovuzchini huquqni muhofaza qiluvchi organlariga topshirish maqsadida yetkazib ushslash, zaruriy mudofaa emas, balki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushslash vaqtida unga zarar yetkazish kabi huquqiy baholanadi (JK 39-m.).

2. Zararning faqat tajovuzchiga yetkazilganligi. Hujumni faol qarshilik ko'rsatish yo'li bilan qaytarganda zarar uchinchi shaxslarga emas, faqat hujum qilgan shaxsga yetkazilishi kerak, chunki mudofaa qiluvchining maqsadi, manfaatlarini aynan tajovuzchidan himoya qilish hisoblanadi. Shuning uchun zaruriy mudofaada faqat hujum qilayotgan tajovuzchiga zarar yetkaziladi. Hujum qilgan shaxsni tanishi, hamrohi yoki boshqa hujum qilish holatiga guvoh bo'lgan shaxslarga zarar yetkazish zaruriy mudofaa sifatida baholanmaydi.



Hujum qiluvchiga yetkazilgan zararning xususiyati uning o'limida, badaniga yetkazilgan har qanday shikastda, shuningdek, mulkiy zarar yetkazilishida ifodalanishi mumkin. Tajovuz qiluvchi faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin va faqat unga zarar yetkaziladi. Agar tajovuz (it, sigir, ot va boshqalar) foydalanish yo'li bilan amalga oshirilib, qarshilik ko'rsatish jarayonida hayvon o'ldirilsa, bunday qilmish tajovuz (hujum) qilganga mulkiy zarar yetkazilgan zaruriy mudofaa sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Chunki, tajovuzchi o'zi bevosita hujum qilmasa ham hayvondan foydalanib hujum qilgan hisoblanadi. Bunday vaziyatda mudofaalanuvchining harakati (itni o'ldirishi), agar zaruriy mudofaa vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligiga oid boshqa shartlarga mos kelsa, qonuniy hisoblanadi.

3. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmaganligi. Hujum qiluvchiga yetkazilgan zararni qonuniy deb topishda (ayniqsa, so'z uni hayotdan mahrum qilish to'g'risida borayotgan bo'lsa) tajovuzning xavflilik darajasidan kelib chiqishi kerak. Tajovuz qanchalik xavfli bo'lsa, uni qaytarish uchun yo'l qo'yiladigan qarshilik (daf etish) chorralari shunchalik qattiq bo'ladi. Agar hujum qiluvchi mudofaalanuvchini o'ldirishni niyat qilib zo'zrlik ishlatgan bo'lsa, uning o'limiga olib keladigan holgacha himoyalanishi mumkin. Bunda hujum qiluvchining niyatidan u tajovuz jarayonida qo'llaydigan aniq harakatlari dalolat beradi. Hayotiy muhim a'zolarga chuqr jarohat yetkazishga harakat qilishi mudofaalanuvchini o'ldirishga urinishdan



darak beradi. Tajovuzchi boshqa hayot uchun xavfli bo‘lмаган harakatlarni sodir etishga urinishi, o‘ldirish Niyati yo‘qligidan dalolat beradi.

Zaruriy mudofaa holatida yetkaziladigan zarar tajovuzning xavfliligi bilan mos kelishi shart. Tajovuzchi mudofaalanuvchining hayotiga aniq xavf solsa, himiya vaqtida uni hayotdan mahrum qilishi mumkin. Agar tajovuz faqat sog‘liqqa zarar yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, himoyalanish vaqtida faqat sog‘liqqa zarar yetkazilishi lozim bo‘ladi. Tajovuz mulkka nisbatan bo‘lsa, himoyalanuvchi faqat sog‘liqqa zarar yetkazish huquqiga ega. Agar mulkka yoki sog‘liqqa tajovuz qilinganligi aniq bo‘lgan holatda, himoyalanuvchi tajovuzchini o‘ldirsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilgan deb baholanadi.

Shaxsning nomusiga tajovuz qilinganida, qonunda oxirgi chora sifatida tajovuzchini hayotdan mahrum qilish ham zaruriy mudofaa sifatida huquqiy baholanadi. Masalan, tajovuzchi kuch ishlatgan holda jabrlanuvchining qarshilagini yengib, nomusiga tegishga harakat qilganida, jabrlanuvchi nomusini himoya qilgan holda tajovuzchini o‘ldirsa, bu qilmish zaruriy mudofaa kabi baholanadi.



Barcha holatlarda tajovuz va himoya usullari bir-biriga teng bo‘lishi talab qilinmaydi. Ayrim holatlarda tajovuzga nisbatan himoya vositasi og‘irroq usulda namoyon bo‘lishi mumkin va bu holat zaruriy mudofaa kabi baholanadi. Masalan, musht bilan tajovuz qilinganida – toshdan, jussasi himoyalanuvchidan ancha baquvvat shaxs tomonidan quolsiz hujum qilinganida – bolta yoki pichoqdan foydalanish, belkurak armature, pichoq va shunga o‘xhash narsalar bilan hujum qilinganida – ov miltig‘i bilan himoyalanish, vaziyatdan kelib chiqib quolsiz hujum ham shaxsning hayotiga real xavf tug‘dirgan bo‘lsa – to‘pponcha bilan himoyalanish qonuniy deb topiladi. Hujumni qaytaruvchi shaxs yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan har qanday vositalar bilan himoyalanish huquqiga ega bo‘lishi hamda faqat zaruriy mudofaa chegarasidan oshkora chetga chiqmasligi kerak.

Amaliyotda o‘qotar quroldan foydalanib zaruriy mudofaaga o‘tish doimo chuqr tahlil qilib, xulosa qabul qilishni talab etadi. Hujum o‘qotar qurol bilan sodir etilsa, himoya ham o‘qotar qurol bilan amalga oshirilishi mumkin. Tajovuzchi jismonan baquvvat bo‘lib, qurolsiz ham himoyalanuvchini hayotiga aniq xavf solayotgan bo‘lsa, qurol bilan zaruriy mudofaaga o‘tish qonuniy hisoblanadi.



Zaruriy mudofaa bilan bog‘liq yana bir huquqiy ahamiyat kasb etadigan holat – zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishdir.

Yuqorida keltirilgan Plenum qarorida tushuntirib berilishicha, “sudlar zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan himoyalanuvchiga tug‘dirilgan xavfning xarakteri, himoyaning kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum va himoyalanuvchining kuch nisbatlariga ta’sir o‘tkazuvchi ishdagi barcha holatlarni (hujum qiluvchi va himoyalanuvchining soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarur. Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarining har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli”.

Qonunda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga “tajovuzning xususiyati va xavfliliyi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi” (JK 37-m. 2-q.) deb ta’rif berilgan. Qonunda berilgan ushbu ta’rif mazmunini sharhlab, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb uchun quyidagi bir necha muhim qoidalarni alohida ko‘rsatish zarur bo‘ladi:

- 1) himoyaning davomiyligi tajovuzning xususiyatiga mos kelmasligi;
- 2) himoya qilishda yetkazilgan zarar hujumning xavflilik darajasiga mos kelmasligi.

Ushbu holatlardan kamida bitta mavjud bo‘lsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilgan deb huquqiy baholanadi.

Ushbu holatlarni har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Himoyaning davomiyligi tajovuzning xususiyatiga mos kelmasligi.



Mudofaalanuvchi o‘zining himoyalanish harakatining davomiyligini tajovuzning xavfi bilan o‘lchab ko‘rishi shart, ya’ni tajovuz davom etayotgan vaqtda zarar yetkazishi mumkin. Agar tajovuz tugab, hujum qilgan shaxs o‘z harakatlarini to‘xtatsa va buni himoyalanayotgan shaxs anglab turib unga zarar yetkazsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish sifatida baholanadi. Tajovuz davom etayotgan vaqtda shaxs zaruriy mudofaaga o‘tib, o‘zini himoya

qilish bilan bog‘liq harakatlarni sodir etadi. Tajovuz ma’lum bir vaziyat tufayli to‘xtatilsa va to‘xtaganligi aniq ko‘rinib turgan vaqtda himoyalanayotgan shaxs yana o‘z harakatlarini davom ettirib zarar yetkazsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilgan deb huquqiy baholanadi. Masalan, pichoq bilan shaxsning hayotiga tajovuz qilgan shaxsning qo‘lidan pichog‘i tushib ketdi va o‘zi himoyalanuvchi urgan zarbadan yerga yiqildi, himoyalanuvchi shaxs jismoniy baquvvat bo‘la turib, yerda yotgan tajovuzchini unga boshqa tajovuz qila olmasligini bila turib, zarba urishni to‘xtatmadi. Natijada, tajovuzchi vafot etsa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilgan kabi huquqiy baholanadi.

Mudofaalanuvchi to‘satdan qilingan tajovuzdan kuchli ruhiy hayajonlanish holatiga tushib, vaziyatni anglamasdan (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib) hujumni qaytarsa, uning qilmishida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish va kuchli ruhiy hayajonlanish holati bir vaqtda mavjud bo‘ladi. Ammo, himoyalanuvchi shaxsning jinoiy javobgarligi faqat zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqanligi uchun vujudga keladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi yuqoridagi Plenumi qarorida ham “agar himoyalanuvchi to‘satdan yuz bergen kuchli

ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqsa, uning harakati Jinoyat kodeksining 100 yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak”ligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, birinchi shaxs tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rlik yoki og‘ir haqorat, shuningdek, uning boshqa g‘ayriqonuniy harakatlari hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lmasa, zo‘rlikdan yoki haqoratdan kuchli hayajonga tushgan ikkinchi shaxs o‘zini tuta olmay unga zarar yetkazsa, qilmishi zaruriy mudofaa sifatida baholanmaydi. Bunday holatda zarar yetkazgan shaxs, yetkazilgan zarar xususiyatidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining 98 yoki 106-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish, qasddan og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir badanga shikast yetkazish jinoyatlari kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yuz bergan odam o‘ldirish, og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir badanga shikast yetkazish jinoyatidan farq qiladi. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida ushbu jinoyatlar sodir etilganda, jabrlanuvchiga yetkazilgan zarardan maqsad himoyalanish bo‘lmaydi, shu sababli zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb baholanmaydi.

Himoya qilishda yetkazilgan zarar hujumning xavflilik darajasiga mos kelmasligi. Mudofaalanuvchida tajovuzdan o‘zini himoya qilish usullari va vositalarini tanlash uchun har doim ham vaqt yetarli bo‘lmaydi, ammo ularni hujumning xavflilik darajasi doirasida tanlab olishi kerak. Agar himoya hujumning xavflilik darajasidan ancha oshib ketsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilgan deb huquqiy baholanadi. Masalan, qo‘lidagi sumkasini tortib olishga uringan talonchini boshiga temir bilan urib o‘ldirish, do‘pposlash maqsadida musht tushirayotgan shaxsni pichoq bilan sanchib o‘ldirish, og‘zaki haqorat qilayotgan shaxsni haqorat qilishini to‘xtatish maqsadida urib, badaniga shikast yetkasish va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan holatlar tajovuzning xavflilik chegarasini aniqlash uchun yetarli emas.



Hujum va himoyalanish quroli bir-biriga muvofiq kelishi yoki kelmasligidan qat’iy nazar, ishning qolgan boshqa holatlarini hisobga olmasdan himoyalanish harakatlarining qonuniyligi yoki noqonuniyligini aniqlash mumkin emas.

Shunday qilib, hujumning qanday qurol yoki vosita bilan qaytarilganini aniqlash bilan chegaralanmasdan, tajovuzning xavflilik doirasidan chetga chiqqan yoki chiqmaganligini bilish muhimdir. Himoya quroli va vositasi o‘z-o‘zidan tajovuzda hujumni qaytarish yoki tajovuz sodir etishning obyektiv imkoniyatlaridan darak beradi. Himoya yoxud hujumning xususiyati, uning shaxsga nisbatan xavflilik darajasi hujum qiluvchi va mudofaanuvchini jismoniy baquvvatligi, himoyalanuvchini holati va boshqa shunga o‘xshash mezonlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Masalan, jussasi kichkina shaxs oshxonanida pichog‘i bilan hujum qilganda, jussasu baquvvat sportchi shaxsning hujumini qaytarish uchun temir bo‘lagi bilan urib badanga og‘ir shikast yetkazishni tahlil qilishda, shaxsning jussasi kattaligi tufayli, temir bilan badanga shikast yetkazmasdan pichoqni tortib olish imkoniyatiga ega bo‘lgan va bu holatda temir ishlatishga ehtiyoj bo‘lmagan deb topilsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb huquqiy baholanadi. Aksincha, maxsus moslama bilan ko‘tarilgan avtomobilning tagida yotib, uni ta’mirlayogan jussasi baquvvat shaxsga jussasi kichkina shaxs moslamani tugmachasini bosib, avtomobilni uning ustiga tushirib o‘ldirishga harakat qilayotganida, uning oyog‘iga yoki qo‘liga og‘ir temir bilan urib shikast yetkazishi zaruriy mudofaa deb topiladi. Bu vaziyatda himoyalanayotgan shaxsning jussasi kattaligi emas, balki uning qanday holatda himoyaga o‘tayotganligi inobatga olinadi. Demak, zaruriy mudofaa bilan bog‘liq har bir holat alohida tahlil qilinishi, kuchlar nisbati, vaziyat, ishlatilgan qurol yoki vositalar chuqur o‘rganilishi va shundan so‘ng zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan yoki chiqmaganligi aniqlanishi kerak.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi zaruriy mudofaani tahlil qilish hamda zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan himoyalanuvchiga tajovuz qilingan xavfning xarakteri, himoyachining kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum va himoyalanuvchining kuchi nisbatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ishdagi barcha holatlarni (hujum qiluvchi va himoyalanuvchilarining soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarining har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli.



Shunday qilib, tajovuzning xavflilik darajasidan kelib chiqib, mudofaalanuvchi shaxs himoya vositalari va qurollarini ko‘rsatilgan doirada tanlaydi, vaziyatdan kelib chiqib tajovuzchiga zarar yetkazishi yoki yetkazmasligi mumkin.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda tajovuz qiluvchiga yo‘l qo‘yiladigan doiralaridan yaqqol chetga chiqib zarar yetkazishni aniqlash uchun muayyan holatda himoya choralar oqlab bo‘lmaydigan darajada qattiqligini, shaxs bunday qattiq himoya chorasi ko‘rayotganligini bilganligi shart. Shuningdek, himoyalanuvchi tajovuzni birmuncha yengil choralar bilan ham bartaraf etishi mumkinligini anglab yetadi, biroq u bunday qilishni istamaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy xavfli tajovuzni qaytarish vaqtida zarar yetkazishning yo‘l qo‘yiladigan chegaralaridan chetga chiqish intellektual (aqliy) va moddiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Subyekt hujumni qaytarish uchun zarur bo‘lgan himoyalanish chorasi doirasidan chetga chiqayotganligini biladi va uni istaydi yoki zarurat bo‘lmasa holda, bila turib zararning kelib chiqishiga yo‘l qo‘yadi.

Ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish vaqtida tajovuz qiluvchiga ehtiyojsizlik orqasida zarar yetkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi yetkaziladi,

ammo ayrim holatlarda ehtiyotsizlik oqibatida ham zarar yetkazilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mazkur tushuntirishi, aynan zaruriy mudofaa holat mavjud bo'lib, uning barcha shartlariga rioya qilingan holatda himoyalanuvchi tajovuzchiga qasddan zarar yetkazadi, shu bilan birga, ehtiyotsizlikka yo'l qo'yib, kattaroq zarar yetkazishi ham mumkin. Aynan ehtiyotsizlik qilib yetkazgan zarar himoyalanuvchining jinoiy javobgarlikka tortilmasligini bildiradi.

Uning mazmunini shaxs sodir etgan jinoiy qilmishining haqiqiy xususiyatini, ijtimoiy mohiyatini anglashi, o'zining xulq-atvori natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatga ko'zi yetish qobiliyati, shuningdek, subyekt o'z faoliyati davomida xulq-atvorning aniq bir variantini tanlash orqali tartibga solinishida namoyon bo'ladigan aybning irodaviy belgisini tushunib yetishlari tashkil qiladi. Masalan, agar himoyalanuvchi shaxs hujum qilayotgan shaxsni turtib yuborsa va u shu turtish natijasida yiqilib, boshi toshga tegib o'lsa, bunday oqibat ehtiyotsizlik natijasida kelib chiqqan hisoblanadi. Bu holatda oqibatga nisbatan ayb shaklining ehtiyotsizlik turi mavjud bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- 1) shaxs ehtiyotsizlik natijasida jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'layotgan vaqtida o'zining huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilgan;
- 2) himoyalanuvchi shaxs hujum qiluvchini turtayotib, o'z qilmishi oqibatining ijtimoiy xavfliligini anglamagan;
- 3) shaxs og'irroq ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishini istamagan, ammo ehtiyotsizlik tufayli bunday oqibat kelib chiqqan;
- 4) shaxs qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishiga ko'zi yetishi mumkin va kerak edi.

Zaruriy mudofaa – shaxs, davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilish vaqtida tajovuz qiluvchiga qonun ruxsat bergen doirada zarar yetkazish. Zaruriy mudofaaning barcha shartlari bajarilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi hamda zaruriy mudofaa ijtimoiy foydali qilmish singari



tavsiflanadi. Zaruriy mudofaa har bir kishining subyektiv huquqi hisoblanadi va shuning uchun shaxs mudofaalanishi kerakmi yoki yo‘qmi degan masala yakka tartibda hal etiladi, u sud tomonidan munozaraga sabab bo‘lishi mumkin emas”.¹

38-modda. Oxirgi zarurat

Oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o‘sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi. Shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, qonuniy deb topiladi. Agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo‘lgan xavfning xususiyati va xavflilik darajasi, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi va yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinadi².



“Jinoyat huquqi (Umumiy qism)“ darsligida oxirgi zarurat bilan bog‘liq quyidagi fikrlar batafsil bayon etilgan: “Oxirgi zarurat deganda, shaxsga yoki boshqa fuqarolarga yoxud ularning huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazish tushuniladi. Qilmishni oxirgi zarurat deb huquqiy

¹Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Darslik / Yakubov A.S. va boshqalar; – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013., 263-276 betlar;

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: Adolat, 2023;

baholash uchun shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasligi hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lishi talab qilinadi.

Oxirgi zarurat holat qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga kamroq zarar yetkazib, ikkinchi biri ko'proq ahamiyatga ega manfaatni zarardan saqlab qolishda ifodalanadi. Jinoyat kodeksining 38-moddasi talablariga muvofiq, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi, aksincha, ijtimoiy foydali harakat deb baholanadi. Chunki, shaxs kamroq zarar kelib chiqishining oldini oladi. Muhim shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ta'minlashga intilib, oxirgi zarurat holatida harakat qiluvchi shaxs ijtimoiy foydali maqsadni ko'zda tutadi yoki ushbu holatda faqat zarar yetkazish yo'li bilan kelib chiqishi aniq bo'lgan og'ir oqibatning oldini oladi.

Oxirgi zarurat holatida shaxs qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarni himoya qilish maqsadida qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatlarga qasddan ziyon yetkazadi. Shuni inobatga olib, jinoyat huquqi xavf va xavfning oldini olishga nisbatan shartlarni Jinoyat kodeksi normalariga muvofiq holda ishlab chiqqan hamda shu shartlarga rioya qilgan holda yetkazilgan zarar oxirgi zarurat holatida yetkazilgan deb topiladi va zarar yetkazgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Oxirgi zaruratning qonuniylik shartlari ikkiga bo'linadi:

1. Xavfga nisbatan shartlari:

- xavfning paydo bo'lishi;
- xavfning ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi aniqligi;
- xavf boshlangan va tugallanmaganligi.

2. Xavfning oldini olishga nisbatan shartlari:

- ijtimoiy foydali maqsadning mavjudligi;
- yetkazilgan zararning oldi olingan zarardan kamligi;
- zararning uchinchi shaxsga yetkazilishi;
- zararni oldini olishning boshqa chorasi yo'qligi.

Oxirgi zarurat holatida zarar yetkazgan shaxs yuqorida keltirilgan barcha shartlarga roiya qilgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Jinoyat huquqida yuqorida keltirilgan oxirgi zaruratning barcha shartlarining belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari bat afsil ta’riflangan.

Xavfning paydo bo‘lishi. Xavf turli manbaalardan paydo bo‘lishi mumkin, masalan, inson yoki hayvon tajovuzi, texnika yoki boshqa jonsiz jismlarning harakati, tabiiy ofatlar, avariya yoki halokat natijasida paydo bo‘lgan xavf va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Insonning harakatlari oxirgi zarurat holatida zarar yetkazishga sabab bo‘lgan ayrim misollarni keltiramiz: jinoyatchi yoki aqli noraso shaxs tajovuz qilganda, o‘z hayotini saqlab qolish maqsadida uchinchi shaxsga tegishli bo‘lgan transport vositasini olib qochish, kutilmaganda yo‘lning qatnov qismiga mast yo‘lovchining chiqib qolishi va haydovchining rulni boshqa tomonga burib mulkiy zarar yetkazishi va boshqalar.



Oxirgi zaruratda xavf hayvonlar harakati natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, zanjiridan uzilib ketgan it odamga tashlanadi, jabrlanuvchini qutqarish uchun uni o‘ldirish, hayvonot bog‘ida sherning qafasdan chiqib ketishi hamda odamlar qurbon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun xizmatchining sherni otib o‘ldirishi va boshqalar.

Texnika va jonsiz jismlarning harakati ham xavf manbai sifatida oxirgi zaruratni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, g‘isht zavodida loyni kesuvchi apparatga xomashyoni olib boruvchi konveyerning lentasiga ishchi ilinib qoldi va 5-6 soniya ichida uni kesuvchi apparatga yetib borishini ko‘rgan boshqa ishchi tezkorlik bilan lentani kesishi yoki tok berayotgan transformatorni buzib konveyerni to‘xtatishi va boshqalar.

Tabiiy ofatlar ham xavf manbai bo‘lishi mumkin. Masalan, sel oqimini to‘sib qoluvchi tuproqdan qilingan to‘g‘onning yorig‘ini berkitish uchun bir qancha yo‘l texnikasini jalb qilishga to‘g‘ri keladi va ular qishloqni suv bosishidan saqlab qolish uchun limmo-lim to‘lgan suv omboridan ortiqcha suvni zudlik bilan tashlab (oqizib)

yuborishadi, natijada ko‘plab baliqlar nobud bo‘ladi; yer qimirlashi oqibatida katta magistral-gaz quvurlari yorilsa, ekologik falokat yuz berishi xavfining oldini olish maqsadida gazni o‘chirib qo‘yish issiqlik elektr stansiyasining bevaqt to‘xtab qolishiga olib keladi, natijada davlatga ko‘p miqdorda zarar yetkaziladi va boshqalar.

Turli xil texnogen avariylar va halokatlar ham xavf manbai bo‘lishi mumkin: temir yo‘l avariysi suyuq xlorli sisternalarning yorilishiga olib keladi. Bu vaziyatda aholining ommaviy zaharlanishini bartaraf etish uchun ularni zudlik bilan evakuatsiya qilish hamda shaharchadagi barcha korxonalarni to‘xtatish talab qilinadi, bu esa davlat va shaharchadagi boshqa tashkilotlarga katta miqdorda zarar keltiradi.



Oxirgi zaruratning birinchi sharti xavf yuqorida sanab o‘tilgan manbalardan aniq paydo bo‘lishidan iborat.

Xavfning ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishning aniqligi. Xavf qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish tahdidi allaqachon boshlangan va faqat zudlik bilan qilingan harakat uni bartaraf etish mumkin bo‘lgan hollarda yuzaga keladi. Bunda tahdid soluvchi xavf tasavvur qilinadigan, soxta emas, balki haqiqiy bo‘lishi kerak.

Paydo bo‘lgan xavf ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazmasligi aniq bo‘lsa, oxirgi zaruratga hojat qolmaydi. Masalan, shaharchadan o‘tgan temir yo‘ldagi halokat natijasida sisternadan oqayotgan suyuqlik zaharli va atrofdagilar uchun xavfli bo‘lmasa, aholi evakuatsiya qilinmaydi, korxonalar to‘xtatilmaydi. Demak, xavf paydo bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazmasdan o‘tib ketayotgan bo‘lsa, zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.



Shaxs xavf qarshisida o‘zini yo‘qotib harakat qilsa, ya’ni aslida bo‘lmagan xavfni bor deb o‘ylasa, yetkazgan zarari uchun jinoiy javobgarlikka tortish masalasi subyektiv tomonni inobatga olgan holda hal qilinadi. Agar u xavfning zarar yetkazmasligini aniq bilish imkoniyatiga ega va unga majbur bo‘lsa, shaxs ehtiyyotsizlik natijasida zarar yetkazgan deb javobgarlikka tortiladi, agar bilmagan va bilishi ham mumkin bo‘lmasa, jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

Xavf boshlangan va tugallanmaganligi.

Xavfning paydo bo‘lganligi aniq va u davom etayotgan bo‘lishi kerak. Agar xavf tugashiga kam muddat qolgan, uning ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi aniq bo‘lib, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararning oldi olinsa, oxirgi zarurat kabi baholanadi.



Xavf o‘tib ketganidan so‘ng yoki ijtimoiy munosabatga zarar yetkazib bo‘lganidan so‘ng shaxs tomonidan boshqacha zarar yetkazishga qonun yo‘l qo‘ymaydi.

Ijtimoiy foydali maqsadning mavjudligi. Oxirgi zarurat holatida harakat qilayotgan shaxs o‘zi, boshqa fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan har qanday manfaatlarini zarardan saqlash maqsadida harakat qilishi, ya’ni hayot, sog‘liq, mulk, jamoat tartibi, ijtimoiy xavfsizlik, huquqiy tartib, ekologiya, davlatning iqtisodiy resurslari kabi ijtimoiy munosabatlarni zarardan saqlash maqsadida harakat qilishi lozim. Ushbu maqsadlarda harakat qilish ijtimoiy foydali hisoblanadi va qilmishning jinoiyligini istisno etadi.



Yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamligi. Oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zarar bartaraf etilgan zarardan, ya’ni oldi olingan zarardan kam bo‘lishi kerak. Zararlar nisbatan aniqlash uchun yetkazilgan va oldi olingan zararlar taqqoslanadi. Jumladan, hayot yoki sog‘liqni xavfdan saqlab, mulkiy zarar yetkazish, katta hajmdagi mulkni xavfdan saqlab, kichik hajmda mulkiy zarar yetkazish, ayrim holatlarda hayotni saqlash maqsadida badanga shikasy yetkazish va boshqalar. Masalan, stanokda ishlayotgan ishchining



chap qo‘lini bilagigacha ishlayotgan stanok tortib maydaladi va sekin yana tortishni davom ettirayotgan vaziyatda boshqa ishchi tezkorlik bilan uning qo‘lini yelkasidan kesib tashlab hayotini saqlab qolishi. Bu misolda ishchi qo‘lidan ajralgan bo‘lishiga qaramay tirik qoldi, ya’ni hayoti saqlanib qoldi.

Yetkazilgan zarar oldi olingen zarar bilan teng bo‘lib qolsa, oxirgi zarurat kabi baholanmaydi. Bir shaxs hayotini saqlash qolish maqsadida ikkinchi shaxsni o‘limga mahkum qilish oxirgi zarurat hisoblanmaydi. Hamma vaqt barcha insonlarning hayoti qonun oldida bir xil himoya qilinadi, ya’ni bir qari ikkinchi yosh, biri sog‘lom, ikkinchisi kasalmand, ayol yoki erkak, chaqaloq yoki o‘siprin va boshqalar. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning hayotini saqlab qolish evaziga bitta odamni hayotdan mahrum qilish ham oxirgi zarurat sifatida baholanmaydi. Shuning uchun oxirgi zarurat holatida zarar yetkazishda har doim yetkazilgan zarar oldi olingen zarardan kam bo‘lishi shart.

Zararning uchinchi shaxsga yetkazilishi. Oxirgi zarurat holatida harakat qilgan shaxs faqat uchinchi shaxslar manfaatiga zarar yetkazadi. Oxirgi zarurat holatida uchta element qatnashadi, bular: xavf, xavfni oldini olayotgan shaxs va zarar ko‘rayotgan tomon – uchinchi shaxs. Uchinchi shaxs xavfni paydo bo‘lishiga aloqasi bo‘lmaydi, lekin oxirgi zarurat holatida zarar ko‘radi. Masalan, qo‘shnisining uyidagi yong‘inni o‘chirish uchun o‘t o‘chiruvchilar uning xonadoni darvozasini buzib kirib, olovni bartaraf etishi yoki chekka qishloqda tomdan yiqilgan shaxsni kasalxonaga olib boorish uchun ishga ketgan shaxsning avtomashinasini so‘ramasdan haydash va boshqalar. Xavf insonlardan ham chiqishi mumkinligini yuqorida ta’kidlagan edik. Oxirgi zarurat holatida xavf insondan chiqqan taqdirda ham zarar uchinchi shaxslarga yetkaziladi. Masalan, bank binosiga bostirib kirgan bosqinchilar o‘ldirish bilan qo‘rqtib g‘aznachidan seyf kalitini berishni talab qilishida g‘aznachi seyf kalitini ularga bersa, jinoyatchilar davlatga ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazib, pullarni olib ketishadi. Bu misolda xavf insonlardan, ya’ni bosqinchidan chiqmoqda. Xavf, birinchi navbatda, g‘aznachining hayotiga bo‘lmoqda va g‘aznachi hayotini saqlash uchun oxirgi chora sifatida seyf



kalitini berib, uchinchi shaxs – davlatga moddiy zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yib bermoqda.

Zararni oldini olishning boshqa chorasi yo‘qligi. Oxirgi zarurat holatida zarar yetkazish eng so‘nggi chora sifatida bo‘lishi lozim. Agar tahdid solayotgan xavfni bartaraf etishning boshqa zararsiz yo‘llari mavjud bo‘lsa, shaxs birinchi galda o‘sha zararsiz choralarini qo‘llashlari lozim. Ular natija bermaganda, eng oxirgi chora sifatida zarar yetkazib xavfni bartaraf etishga qonun ruxsat beradi.

Agar shaxs tahdid qilayotgan xavfning oldini olish uchun barcha mavjud usul va vositalarni qo‘llasa ham oldini olishning uddasidan chiqa olmagan holatda oxirgi zaruratning boshqa shartlariga to‘la rioya qilingan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi. Chunki, shaxs oxirgi zaruratning barcha qonuniy shartlarini bajaradi, biroq obyektiv sabablarga ko‘ra qo‘llagan chora-tadbirlari tahdid qilayotgan xavfni bartaraf qila olmaydi. Masalan, yong‘inni o‘chirish uchun qo‘shni darvozasi buzilganligiga qaramay, uy to‘la yonib ketishi, darvozani buzgan shaxs javobgarligini istisno qiladi.



Yuqoridagi shartlarning barchasiga rioya qilib, oxirgi zarurat holatida zarar yetkazish jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka olib keladi. Jinoyat qonuni, agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazishni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topadi (JK 38-m. 3-q.).

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishni aniqlashda obyektiv va subyektiv mezonlarni inobatga olish lozim. Obyektiv mezonlar boshqa vositalar bilan tahdid qilgan xavfning oldini olish mumkinmidi, keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketmaganmi, degan masalalarni aniqlash imkonini beradi. Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning obyektiv belgilarini baholashda oldi olingan xavfning xususiyati va darajasi, aniqligi va kelib chiqishiga yaqin qolganligi, uni bartaraf etadigan shaxsning haqiqiy imkoniyatlari, uning yuzaga

kelgan murakkab holat va ishning boshqa holatlariga ko‘ra ruhiy ahvoli hisobga olinishi kerak.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning subyektiv mezoni shaxs oldi olingan zararga teng yoki unga qaraganda ortiqroq zarar yetkazish imkoniyatini anglab yetgan va shuni istagan holda bunday oqibatning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ygani yoki unga befarq munosabatda bo‘lganidan dalolat beradi.

Ruhiy yoki jismoniy majburlashda ham oxirgi zarurat kuzatilishi mumkin. Ammo majburlashda oxirgi zaruratning shartlari buzilsa, jinoiy javobgarlik umumiy asoslarda vujudga keladi, majburlash holatida bo‘lganligi jazoni yengillashtiruvchi holat kabi inobatga olinadi. Masalan, jismoniy majburlash – jinoyatchilar “hozir jabrlanuvchini o‘ldirmasang, seni o‘ldiramiz” deb shart qo‘yganda, o‘z hayotini saqlash uchun boshqa kishini o‘ldirish, oxirgi zaruratning yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo‘lishi kerak degan shartiga mos kelmaydi yoki ruhiy majburlashda – mansabdar shaxsga mansabi bilan bog‘liq jinoyatni sodir etishni talab qilgan tovlamachilarning talabini bajarishi oxirgi zaruratning zararni oldini olishning boshqa chorasi yo‘qligi degan shartiga mos kelmaydi. Bu holatlarda zarar yetkazgan shaxslar umumiy asoslarda jinoy javobgarlikka tortiladilar.



Oxirgi zarurat o‘zining quyidagi belgilariga ko‘ra zaruriy mudofaadan farq qiladi:


- 1) zarar ko‘rvuchi shaxslar bilan – zaruriy mudofaada zarar tajovuzchiga yetkaziladi, oxirgi zaruratda esa uchinchi shaxslarga yetkaziladi;
- 2) xavf manbai bilan – zaruriy mudofaada xavf manbai faqat inson bo‘ladi, oxirgi zaruratda esa xavf manbai inson bilan birga tabiiy ofatlar, hayvonlar va texnika harakati, texnogen halokatlar, avariylar va boshqalar bo‘lishi mumkin;
- 3) zarar nisbati bilan – zaruriy mudofaada yetkazilgan zarar oldi olinganidan kam, teng, xatto undan bir necha bor ko‘p bo‘lishi mumkin, oxirgi zaruratda esa doimi kam bo‘lishi shart;

4) muqobil choralari bilan – zaruriy mudofaada boshqa choralari bo‘lgan taqdirda ham zarar yetkazilishi mumkin, oxirgi zaruratda esa zarar yetkazish oxirgi chora bo‘lishi shart”¹.

*Oxirgi zarurat holatini ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo‘llash uchun huquqiy tartibot sifatida keltiradigan bo‘lsak, ichki ishlar organi xodimi garovdagilarni ozod qilishda uchinchi tomonga zarar yetkazish holatlari kuzatilishi mumkin (ehtimol, garovdagilarni o‘ziga ham). Fikrimizcha, mazkur holat oxirgi zarurat kabi huquqiy baholanadi*².

39-modda. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushslash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushslash uchun zarur bo‘lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi. Ushslash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavfilik darajasiga, shuningdek ushslash sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushslash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushslash choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida unga yetkazilgan zararning qonuniyligini baholashda, qilmishni sodir etgan shaxsning ushlanishdan qochish maqsadida qilgan harakatlari, ushlovchining kuchi va imkoniyatlari, ruhiy holati va ushslash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa holatlar hisobga olinadi. Maxsus vakolatli shaxslar bilan bir qatorda jabrlanuvchi va boshqa fuqarolar ham ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushslash huquqiga egadirlar³.



“Jinoyat huquqi (Umumiy qism)” darsligida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish bilan bog‘liq quyidagi fikrlar batafsil bayon etilgan: “Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida unga

¹ Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Darslik / Yakubov A.S. va boshqalar; - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, 276-282 betlar;

² Muallif fikri.

³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: Adolat, 2023;

zarar yetkazish qonun talab qilgan barcha shartlarga rioya qilingan bo‘lsa qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar kabi baholanadi va ushslash vaqtida zarar yetkazgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushslash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushslash uchun zarur bo‘lgan choralarning chegarasidan cheetga chiqmagan bo‘lsa, jinoyat hisoblanmaydi (JK 39-m. 1-q.).

Qonundagi ushbu ta’rifda “jinoyat” so‘zi o‘rniga “ijtimoiy xavfli qilmish” so‘zi ishlatilgan. Chunki, “jinoyat” tushunchasiga qaraganda “ijtimoiy xavfli qilmish” tushunchasi kengroq hisoblanadi. Qonundagi tushunchada “jinoyat” so‘zi ishlatilsa, ushlanishi kerak bo‘lgan shaxslar faqat jinoyat subyektlari hisoblangan shaxslar doirasi bilan cheklanib qoladi. “Ijtimoiy xavfli qilmish” tushunchasiga esa jinoyat subyektlari bilan birga subyekt bo‘la olmaydigan shaxslar – jinoiy javobgarlik yoshiga yetmaganlar va aqli norasolar ham kiradi.

Qonunda ushslash huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi cheklanmagan. Bu har qanday fuqaroning huquqi, hokimiyat vakillarining esa xizmat burchidir.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni zarar yetkazib ushslash jinoyat huquqining javobgarlikning muqarrarligi va qonuniylik kabi prinsiplarini amalga oshirishga, xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga yangidan tajovuz qilishining oldini olishga, fuqarolarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga, boshqa shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga va boshqa ijobjiy holatlarga olib keladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishda qonun talab qilgan shartlarga to‘liq rioya qilingan bo‘lsa, ijtimoiy foydali va xatto zarur deb topiladi. Bu shartlar ushslashning qonuniyligi va asoslanganligini belgilab beradi hamda qilmishni amalga oshiradigan shaxsning harakat qilish tartiblarini tavsiflaydi.

Shuni esda tutish kerakki, qonunda ushslash vaqtida zarar yetkazishda ushlanadigan shaxsga yetkaziladigan zarar tashqi ko‘rinishidan jinoyatga o‘xshab ketadi, ammo ushslash vaqtida yetkazilgan zarar uchun, qonunda ko‘rsatilgan shartlar

doirasida bo‘lganligi sababli, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi va ushlashni amalga oshirgan shaxsning harakatlari qonuniy deb topiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligi quyidagi ikki guruh shartlarga rioya qilinganligi bilan aniqlanadi:

1. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga taalluqli shartlar:
 - shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi;
 - shaxsning ushlanishdan qochishi yoki shu mazmundagi boshqa harakatlari;
 - shaxsni sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro etish muddatining o‘tmaganligi.
2. Ushlashni amalga oshirish bilan bog‘liq shartlar:
 - hokimiyat idoralariga topshirish maqsadida ushlash;
 - zarar faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga yetkazilishi;
 - ushlash vaqtida yetkazilgan zarar tajovuzning xavfliligiga va ushlash vaziyatiga mos kelishi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishni qonun doirasida amalga oshirilgan deb huquqiy baholash uchun uning barcha shartlarini batafsil o‘rganish talab etiladi.

Shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi.

Jinoyat-prosessual qonunchilik asoslariga ko‘ra, ushlanadigan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi ushlash uchun asos hisoblanadi. Ammo, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs tushunchasi jinoyat huquqida kengroq mazmunga ega, ya’ni qilmishida jinoyat tarkibi belgilari bilan bir qatorda, jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmagan shaxslar (jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan yoki aqli noraso) ham ushlanishi mumkin. Bulardan tashqari, jinoyat huquqi nafaqat ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan, balki ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rgan yoki unga suiqasd qilgan shaxslar ham ushlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.



Ushbu shartning muhimligi shundaki, ushlanadigan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi unga nisbatan yo‘l qo‘yiladigan zarar chegaralarini oldindan aniqlab beradi.

Ushlashni amalgal oshirayotgan shaxs aynan ushlanayotgan shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligini aniq bilishi shart. Taxmin yoki gumonga tayanib zarar yetkazib ushslash, taxmin yoki gumon noto‘g‘ri bo‘lib chiqsa, jinoiy javobgarlikni vujudga keltiradi.

Shaxsning ushlanishdan qochishi yoki shu mazmundagi boshqa harakatlari. Jinoyat sodir qilgan shaxs odil sudlov oldida javob berishni hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar qo‘liga tushishni istamaydi yoki undan bo‘yin tovlaydi. Shaxs qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joylaridan qochgan taqdirda uning harakatida Jinoyat kodeksining 222-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi yaqqol ko‘rinib tursa-da, u bunday shaxslarni ushslash vaqtida zarar yetkazishga asos bo‘ladi.



Ushlanishdan qochish deganda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning yugurib qochishi, transport vositalarida qochishi va boshqa shunga o‘xshash harakatlar orqali qochishi tushuniladi. Qochish mazmunidagi harakatlar deganda, poyezd vagonidan tushmaslik, poyezd jadval bo‘yicha 3-5 daqiqa turganidan so‘ng yurishi aniq, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs shuni bilib, vagondan tushmasdan poyezd bilan ketishni va natijada huquqni muhofaza qiluvchi organlaridan qochishni rejalashtiradi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ushlanishdan qochmasa yoki boshqacha qarshilik ko‘rsatmasa, uni ushslash vaqtida zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shaxsni sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro etish muddatlarining o‘tmaganligi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishning ushbu sharti uzoq vaqt qidiruvda bo‘lgan yoki jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlagan shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.



Ushbu shartni aniq bilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyay kodeksining 64 va 69-moddalaridagi muddatiga e’tibor qaratish lozim. Agar shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro etish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa hamda shaxs yangi jinoyat sodir etmagan bo‘lsa, uni ushslash vaqtida zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishning ikkinchi guruh shartlari ushslashni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, ushslashni amalga oshirayotgan shaxs ularga rioya qilishi talab qilinadi.

Hokimiyat idoralariga topshirish maqsadida ushslash.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslashdan yagona maqsad hokimiyat organlariga topshirish bo‘lishi shart. Boshqa maqsadlarda (o‘ch olish, jinoyatni yashirish evaziga pul talab qilish, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mulkdan bir qismini tortib olish va boshqalar) ushslash vaqtida zarar yetkazish umumiylashtirish asoslarda jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Hokimiyat organlariga topishirish maqsadining mavjudligi ushslash vaziyati bilan aniqlanadi, jumladan zarar yetkazib ushslashni amalga oshirgan shaxs tezda ichki ishlar organlariga olib kelishi, agar ushlangan shaxsga tez tibbiy yordam zarur bo‘lsa, kasalxonaga olib borib, u yerdan ichki ishlar organlariga xabar berishi va boshqa shu mazmundagi harakatlarni sodir etish maqsadning to‘g‘riliqidan dalolat beradi.

Zarar faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga yetkazilishi.

Ushlash vaqtida zarar yetkazish faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan yo‘l qo‘yiladi. Uchinchi shaxslarga (guvohlarga, noto‘g‘ri gumon qilinganlarga, quvlab ketayotganda xalaqit bergen shaxslarga va boshqalarga) zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Adashib boshqa shaxsga zarar yetkazish ehtiyoitsizlik orqasida jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.



Sud amaliyotining ko‘rsatishicha, shunday hollar ham bo‘ladiki, shaxsni ushslash vaqtida xatolik tufayli jinoyatchi deb o‘ylab, uchinchi shaxsga zarar yetkaziladi. Bundan vaziyatda ushbu xatoga yo‘l qo‘ygan shaxs harakatining subyektiv tomoni sinchkilab o‘rganilishi kerak. Shaxs xato qilayotganini anglamagan, uning ko‘zi yetmagan va yetishi ham mumkin bo‘lmagan taqdirda aybsiz zarar yetkazish mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, transport vositasida qochayotgan qurollangan jinoyatchilar, o‘zлari bilan majburan begona shaxsni olib ketayotganligini bilmagan ichki ishlar organlari xodimlari transport vositasiga qarata o‘q uzishi natijasida begona shaxsning badaniga shikast yetkazilishi. Bu holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida quroldan foydalanayotgan xodimlar avtomobil ichidagi begona shaxs borligini bilmagan, tezkor vaziyat bunga imkoniyat bermagan, shu sababli jinoyatchilar orasiga majburlash orqali qo‘shilib qolgan shaxsga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik vujudga kelmaydi.

Ushlash vaqtida yetkazilgan zarar tajovuzning xavfliligiga mos kelishi.

Ushlash vaziyati, zarar yetkazishdan boshqa usul bilan ushslashning iloji yo‘qligi sababli, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxslarga zarar yetkazishni shart qilib qo‘yadi. Shu bilan birga, ushlayotgan shaxs ushslash uchun yetarli bo‘lgan – eng kam zarar yetkazish usullaridan foydalanishi kerak. So‘nggi chora sifatida shaxs qarshilik ko‘rsatsa, yashirinishga urinsa, qurol bilan tahdid qilsa yoki o‘zining ushlanishi va hokimiyat organlariga tutib berilishiga to‘sinqinlik qiluvchi boshqa usullardan foydalansa, zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan zo‘rlik ishlatishi mumkin.



Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishda “yetkazilgan zararning tajovuzning xavfliligiga mos kelishi” deganda, yetkazilgan zararning sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligiga mos kelishi tushuniladi. Qilmishning xavflilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ushslash vaqtida shunga mos ravishda zarar yetkazishga ruxsat beradi. Ammo qilmishning xavflilik darajasi qanchalik kam bo‘lsa, ushslash vaqtida minimal zarar yetkazish yoki umuman zarar yetkazmaslik kerak. Masalan, qasddan odam o‘ldirgan shaxs qochishga urinsa, eng oxirgi chora sifatida hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib ushslash mumkin. Kissavurlik qilgan shaxs qochishga urinsa, badaniga yengil tan jarohati yetkazib ushslashga ruxsat beriladi. Haqorat qilish jinoyatini sodir etgan shaxs qochishga harakat qilsa, hattoki qochib ketishi aniq bo‘lgan taqdirda ham uning badaniga shikast yetkazishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishda “yetkazilgan zararning ushslash vaziyatiga mos kelishi” deganda, yetkazilgan zararning ushslash vaziyatiga to‘la mos kelishi tushuniladi. Ushslash vaziyati quyidagilarni taqqoslash orqali aniqlanadi: qochayotgan shaxsning imkoniyatlari (semiz yoki ozg‘in sportchi yoki kasalmand, ayol yoki erkak va boshqalar), zarar yetkazayotgan shaxsning imkoniyatlari (jismoniy baquvvatligi, bir necha shaxs tomonidan ushlanayotganligi, qurollanganligi, kuch ishlatishda foydalanadigan

maxsus vositalar bilan ta'minlanganligi va boshqalar), qochishga urinish holati (yaralangan holatda qochmoqchi bo'lganligi, transport vositalarida qochmoqchi bo'lganligi, keng dalada qochmoqchi bo'lganligi va boshqalar), ushslash sharoiti (jinoyatchi yashiringan uyning qurshab olinganligi, minib qochayotgan avtomobilining buzilganligi yoki shinasi yorilgan holatda qochayotganligi va boshqalar) hamda boshqa ushslashga ko'maklashuvchi hamda to'sqinlik qiluvchi sharoitlar taqqoslanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqish.

Ushslash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushslash sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushslash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi (JK 39-m. 2-q.).



Qonunda berilgan ushbu ta'rif ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash chegarasidan chetga chiqish belgilarini aniq ko'rsatadi, jumladan ushslash vaqtida zarar yetkazish:

- ushslash vositalari yoki usullariga mos kelmasligi;
- qilmish yoki uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga mos kelmasligi;
- ushslash sharoitiga butunlay mos kelmasligi;
- ushslash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazganlik.

Yuqorida sanab o'tilgan to'rtta mos kelmaslik holatidan kamida bittasi mavjud bo'lishi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish darajasidan chetga chiqilgan deb huquqiy baholash uchun yetarli hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs voyaga yetmagan, kasal, nogiron, qarib qolgan bo'lib, qochishsa urinsa, ularni badaniga shikast yetkazib ushslash – ushslash sharoitiga mos kelmagan deb huquqiy baholanadi, yugurib qochayotgan jinoyatchini avtomobil bilan bosib ushslash – ushslash usuliga mos kelmaydi, o'g'irlilik qilgan shaxs qochayotganida qurol ishlatib ushslash –

qilmishning xavfliligiga mos kelmaydi, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs qochishga uringan, biroq qoqilib, yiqilib tushganida unga zarar yetkazish – ushslash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazganlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu holatlarda yetkazilgan zarar (o‘limning kelib chiqishi, badanga og‘ir shikast yetkazilishi) uchun jinoiy javobgarlik vujudga keladi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazish chegarasidan chetga chiqib yetkazilgan yengil zararlar (badanga yengil o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish) uchun ushslashni amalga oshirgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslashning zarur choralar chegarasidan chetga chiqib zarar yetkazgan shaxs, yetkazilgan zarar xususiyatidan chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 101 yoki 108-moddalari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash vaqtida zarar yetkazishni qonuniy deb topish uchun yuqorida ko‘rsatilgan barcha shartlarga rioya qilinganligi aniqlanishi lozim va ularni tahlil qilish natijasida zarar yetkazishning qonuniyligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin.”¹.

2.3-§ 2016-YIL 16-SENTABRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “ICHKI ISHLAR ORGANLARI TO‘G‘RISIDA”GI O‘RQ-407-SON QONUNI (V bob, 21,24-moddalari)



Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni o‘zidan yuqori turuvchi quroq qo‘llash bilan bog‘liq global kuchga ega bo‘lgan hamda milliy qonunchilikdagi mavjud tartibotlarning asosiy mazmunini mujassamlashtira olgan. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 5-bobi “Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash” deb nomlanadi hamda o‘z

¹ Jinoyat huquqi (Umumiy qism): Darslik / Yakubov A.S. va boshqalar; - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013, 282-288 betlar.

ichiga 21-modda “Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash shartlari”, 22-modda “Jismoniy kuch ishlatish”, 23-modda “Maxsus vositalarni qo‘llash” hamda 24-modda “O‘qotar qurolni qo‘llash”ni oladi. Ushbu moddalardan 21 hamda 24-moddalar bevosita qurol qo‘llash bilan bog‘liq tartibotlarni o‘zida mujassamlashtirgan moddalar hisoblanadi.

5-bob Ichki ishlar organlari xodimlaritomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash

21-modda.
Jismoniy kuch
ishlatish, maxsus
vositalarni va
o‘qotar qurolni
qo‘llash shartlari

22-modda.
Jismoniy kuch
ishlatish



23-modda.
Maxsus vositalarni
qo‘llash



24-modda.
O‘qotar qurolni
qo‘llash



21-modda. Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash shartlari

Ichki ishlar organi xodimi o‘ziga biriktirilgan o‘qotar qurol va maxsus vositalarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida olib yurish, saqlash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash huquqiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ega bo‘ladi.



Ichki ishlar organi xodimi maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliliginin tekshirish uchun davriy tekshiruvdan o‘tishi shart. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodimga tegishli sertifikat beriladi.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliliginini aniqlash bo‘yicha tekshiruvdan o‘ta olmagan ichki ishlar organi xodimi egallab turgan lavozimga muvofiqligini aniqlash uchun attestatsiyadan o‘tadi.



Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilishidan avval ularni qo‘llash niyati to‘g‘risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo‘lishi kerak, bundan ushbu ogohlantirishning imkon bo‘lmagan yoxud ularning qo‘llanilishini kechiktirish fuqarolarning va ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan hamda boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollar mustasno.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xattiharakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo‘lishi kerak. Bunda ichki ishlar organi xodimi har qanday zararning imkon qadar kam bo‘lishiga intilishi shart.



Ichki ishlar organi xodimi, agar yuzaga kelgan vaziyatda maxsus vositalarni yoki o‘qotar qurolni qo‘llash uchun mazkur moddada hamda ushbu Qonunning [23](#) va [24-moddalarida](#) nazarda tutilgan asoslar vujudga kelishi mumkin deb hisoblasa, maxsus vositalarni yoki o‘qotar qurolni qo‘llash uchun tayyorlash hamda ularni jangovar holatga keltirish huquqiga ega.



Jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilganligi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga birinchi yordam ko‘rsatilishi, shuningdek imkon qadar qisqa vaqt ichida tibbiy yordam ko‘rsatish choralari ko‘rilishi, ularning qarindoshlari esa yigirma to‘rt soat ichida bu haqda xabardor qilinishi kerak.



Jismoniy kuch ishlatilgan, maxsus vositalar va o‘qotar qurol qo‘llanilgan har bir holat to‘g‘risida ichki ishlar organining xodimi bevosita boshlig‘iga darhol axborot berishi shart.

Jismoniy kuch ishlatilganligi va maxsus vositalar qo‘llanilganligi natijasida jismoniy yoxud yuridik shaxslarning hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat haqida, shuningdek o‘qotar qurol qo‘llanilgan barcha hollar to‘g‘risida ichki ishlar organlari prokurorga darhol xabar beradi.



Ichki ishlar organi xodimining jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o‘qotar qurolni qo‘llash chog‘ida o‘z vakolatlari doirasidan chiqqanligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Agar jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o‘qotar qurolni qo‘llash qonunda belgilangan asoslar bo‘yicha va tartibda amalga oshirilgan bo‘lsa, ichki ishlar organi xodimi jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki o‘qotar qurolni qo‘llash chog‘ida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.



Agar ichki ishlar organi xodimi tomonidan jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llanilganligi natijasida fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoxud u halok bo‘lsa, ichki ishlar organi xodimi hodisa joyini o‘zgarishsiz saqlashga qaratilgan choralarni ko‘rishi shart.



24-modda. O‘qotar qurolni qo‘llash

Ichki ishlar organi xodimi quyidagi hollarda o‘qotar qurolni qo‘llash huquqiga ega:

fuqarolarni yoxud o‘zini hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan, zo‘rlik ishlatish bilan qilingan hujumdan himoya qilishda;



garovdagilarni ozod qilishda;

o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etish chog‘ida ko‘rib qoltingan va yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkonib bo‘lmasa;



ichki ishlar organlarining o‘qotar qurollarini, o‘q-dorilarini, portlovchi moddalarini, transport vositalarini, maxsus va jangovar texnikasini egallab olishga bo‘lgan urinishlarga chek qo‘yishda;

fuqarolarning uy-joylariga, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning qo‘riqlanadigan obyektlariga, o‘ta muhim yuklariga, transport vositalariga, binolariga guruh bo‘lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etishda;



qurolli qarshilik ko‘rsatayotgan shaxsni, shuningdek yonidagi qurolni, o‘q-dorilarni, portlovchi moddalarini, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarini topshirish to‘g‘risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;

jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslarning, o‘ziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qamoqdan qochib ketishiga chek qo‘yishda, shuningdek ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod qilishga bo‘lgan urinishlarga chek qo‘yishda;



agar transport vositasining haydovchisi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga haqiqiy xavf tug‘dirsa hamda ichki ishlar organi xodimining qonuniy talablariga qaramay, to‘xtashdan bosh tortsa, ushbu transport vositasini shikastlash yo‘li bilan to‘xtatishda;

insonning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda;



qurol ishlatish niyati haqida ogohlantirish sifatida o‘q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo‘nalishda o‘q otish orqali xavf-xatar signali berishda yoki yordamga chaqirishda.

Ichki ishlar organining xodimi o‘qotar qurolni qo‘llashdan oldin ogohlantirishi shart, bundan uning hayotiga yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tahdid solayotgan hollar mustasno.

Ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma’lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘qotar qurolni qo‘llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli hujum qilganligi, qurolli qarshilik ko‘rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud ichki ishlar organi xodimining hayoti va sog‘lig‘iga tahdid etib, guruh bo‘lib hujum qilganligi hollari mustasno.




O‘qotar qurol qo‘llanilishi natijasida tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo‘lsa, ichki ishlar organi xodimi ko‘p fuqarolar to‘planganda uni qo‘llash huquqiga ega emas.

Ichki ishlar organlari qurollantiriladigan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilari turlarining ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu ro‘yxatga kirmaydigan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilari bilan ichki ishlar organlarini qurollantirish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

2.4-§ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING UMUMHARBIY NIZOMLARI (Ichki xizmat Nizomi 1-qism, 1-bobi 11,12-bandlari, Garnizon va qorovullik xizmatlar Nizomi 2-qism, 5-bobi 132, 171, 184,185,186,190-bandlari.)

Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘sinchilari tarkibida qorovullik xizmatini o‘taydigan harbiy xizmatchilar tomonidan qurol qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat hamda Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi talablariga asosan amalga oshiriladi. Ichki xizmat Nizomining 1-qismi, 1-bobi “Harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi” deb nomlanib, 11,12-bandlarida harbiy xizmatchilar tomonidan hamda Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi 2-qismi 5-bobi “Qorovulning huquq va majburiyatları. Qorovul boshlig‘ining umumiy majburiyatları” deb nomlanib, 132,171,184,185,186,190-bandlarida qorovullar naryadi tomonidan qurol qo‘llash bilan bog‘liq tartibotlar keltirilgan:



11. Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini ijro etish chog‘ida, zarur bo‘lgan hollarda esa xizmatdan tashqari vaqtda ham qurol saqlash, taqib yurish, qo‘llash va foydalanish huquqiga egadirlar.

Harbiy xizmatchilarning qurol saqlash qoidalari va qo‘llash tartibi Ichki xizmat Nizomi bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar:

- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilish mumkin bo‘lmasa, qo‘riqlanadigan harbiy va davlat inshootlariga, shuningdek, harbiy qism va bo‘linmalar qarorgohlariga, harbiy qism imoratlari va inshootlariga, harbiy eshelonga, mashinalar kolonnalariga, yakka transport vositalariga va qorovulga to‘da bo‘lib yoxud qurolli hujumni qaytarish uchun;

- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilish mumkin bo‘lmasa, qurol va harbiy texnikani zo‘ravonlik bilan egallab olishga urinishlarning oldini olish uchun;

- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan muhofaza qilishning iloji bo‘lmasa, harbiy xizmatchilarni va fuqarolarni ularning hayotiga va sog‘lig‘iga tajovuz qiladigan hujumlardan muhofaza qilish uchun;

- agar boshqacha yo‘llar va vositalar bilan qarshilikni bostirish, jinoyatchini ushslash yoxud qurolni tortib olishning iloji bo‘lmasa, jinoyat sodir qilgan yoxud og‘ir va xavfli jinoyat sodir qilish ustida qo‘lga tushganda qurolli qarshilik ko‘rsatgan shaxsni, shuningdek, qurolni topshirish to‘g‘risidagi qonuniy talabni bajarishdan bo‘yin tovlagan qurollangan shaxsni ushslash uchun eng so‘nggi chora sifatida qurolni shaxsan yoxud bo‘linma tarkibida qo‘llash huquqiga egadirlar.



Qorovul tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi qurolni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomida belgilangan hollarda va tartibda qo‘llash huquqiga egadir.

Komandir (boshliq), bundan tashqari, bo‘ysunuvchining bo‘yin tovashi Vatanga xiyonat qilishga yoxud jangovar sharoitlarda jangovar topshiriqlar

bajarilishini barbod etishga qaratilgan ochiq-oydin xatti-harakatlarda namoyon bo‘lganda intizom va tartibni tiklash uchun qurol ishlatish yoxud qurol ishlatishga buyruq berish huquqiga egadir.

12. Qurol ishlatishdan oldin uni ishlatish ahdi to‘g‘risida ogohlantirish yuz berishi lozim. Qurol to‘satdan yoxud qurolli hujum chog‘ida, jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalanilgan hujum chog‘ida, qamoqdan qurol bilan yoxud transport vositalaridan foydalanib qochish paytida, shuningdek, transport vositalaridan ularning harakatlanishi chog‘ida, tunda yoxud ko‘rinish cheklangan boshqa sharoitlarda tashlab qochish paytida ogohlantirishsiz ishlatilishi mumkin.



Harbiy xizmatchilar trevoga yoxud yordam chaqirig‘i signali berish, shuningdek, odamlar hayotiga yoxud sog‘lig‘iga tajovuz qiluvchi hayvonlarga qarshi qurol ishlatish huquqiga ega.

Qurol ishlatish va foydalanish chog‘ida harbiy xizmatchi atrofdagi fuqarolarning xavfsizligini ta’minalash uchun iloji bo‘lgan barcha choralarmi ko‘rishga, zarur hollarda esa jabrlanuvchilarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishga majburdir.

Ayollar va balog‘at yoshiga yetmaganlarga nisbatan, agar boshqa yo‘llar va vositalar bilan bunday hujum yoxud qarshilikni qaytarishning iloji bo‘lmasa, ularning harbiy xizmatchi va boshqa fuqarolarning hayotiga xavf soluvchi qurolli hujumlari, qurolli qarshilik ko‘rsatishi yoxud to‘da bo‘lib hujum qilishi hollari bundan istisno, qurol ishlatish mumkin emas.

Harbiy xizmatchi har bir qurol ishlatilishi yoxud foydalanishi to‘g‘risida komandirga (boshliqqa) bildiruv beradi.

132. Qorovul boshlig‘i o‘zi yoki qorovul tarkibida qo‘riqlanayotgan obyektlarga, soqchiga, qorovul navbatchilariga (nazorat qo‘riqlash guruhiga) yoki qorovulxonaga hujum bo‘lganda, shuningdek, bandilar o‘rtasidagi tartibsizliklarni to‘xtatish yoki qochmoqchi bo‘lgan bandiga nisbatan qurol ishlatishi mumkin.



Qurol ishlatishdan oldin qurolni ishlatish to‘g‘risida ogohlantirish kerak.

Kutilmaganda yoki qurolli hujum bo‘lganda, harbiy texnika, transport vositalari, uchuvchi apparatlar, daryo va dengiz kemalaridan hujum bo‘lganda, shuningdek, qorovul qurol bilan yoki harakatda transport vositasidan qochganda ogohlantirishsiz qurol ishlatish mumkin.

171. Tarqatuvchi o‘zi yoki qorovul tarkibida qo‘riqlanayotgan obyektga, soqchiga, navbat almashishga borayotgan yoki navbat almashishdan qorovulxonaga qaytayotganda qorovullarga hujum bo‘lganda qurol ishlatish huquqiga ega.

184. Soqchi o‘ziga yoki qo‘riqlanayotgan obyektiga aniq hujum bo‘lgan hollarda ogohlantirishsiz qurol ishlatishga majbur.



185. U qorovul boshlig‘i, qorovul boshlig‘i yordamchisi, o‘zining tarqatuvchisi va ular kuzatuvida kelgan shaxslardan boshqa postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashgan barchani baqirib **“To‘xta, orqaga!”** yoki **“To‘xta o‘ngdan (chapdan) aylanib o‘t!”** deb to‘xtatishga haqli.

Agar postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashayotgan tartibbuzar uning bu talabini bajarmasa, soqchi uni **“To‘xta, otaman!”** deb ogohlantiradi va zudlik bilan qorovul boshlig‘ini yoki tarqatuvchini chaqiradi. Agar tartibbuzar shunda ham post va taqiqlangan chegaraga yaqinlashishda davom etsa, soqchi patronnikka patron yuboradi, osmonga qarab ogohlantiruvchi o‘q uzadi. Tartibbuzar shunda ham uning talabini bajarmasa va postga kirishga (taqiqlangan chegarani kesib o‘tishga) harakat qilsa yoki qochishga urinsa, soqchi unga nisbatan qurol ishlatadi.

186. Ko‘rinish yomon bo‘lganda post raqamida ko‘rsatilgan masofadan postga va taqiqlangan chegaraga yaqinlashganlar ko‘rinmay qolganda soqchi ularni **“To‘xta, kim kelyapti?”** deb baqirib to‘xtatadi. Agar javob bo‘lmasa, soqchi uni **“To‘xta, otaman!”** deb ogohlantiradi va ushlaydi. Ushlangan tartibbuzar haqida qorovulxonaga xabar beradi, uning o‘zini tutishini kuzatadi, shu bilan birga diqqatini bo‘lmay, o‘ziga biriktirilgan postni qo‘riqlashda davom etadi.


Soqchi baqirganda **“Qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) kelyapti!”** degan javob bo‘lsa, soqchi quyidagicha buyruq beradi:

“Qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) mening oldimga, qolganlar joyida qolsin!”. Zarurat bo‘lsa soqchi o‘ziga yaqinlashayotgan shaxsdan yuzini yoritishni talab qiladi. Soqchi o‘ziga yaqinlashayotgan shaxs haqiqatan ham qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘ining yordamchisi, tarqatuvchi) ekanligiga ishonch hosil qilgach, qolganlarni ham o‘z oldiga qo‘yadi.

Agar o‘zini qorovul boshlig‘i (qorovul boshlig‘i yordamchisi, tarqatuvchi) deb tanishtirgan shaxs boshqa kishi bo‘lsa va u bilan birga kelganlar soqchining **“Qolganlar joyida qolsin!”** degan talabini bajarmasa, soqchi baqirib **“To‘xta, otaman!”** deb ogohlantiradi. Tartibuzar soqchining bu talabini bajarmasa, ularga nisbatan quroq ishlataladi.

190. Chidab bo‘lmaydigan so‘nggi holatda yoki aloqa vositalari ishlagmay qolgan paytlarda soqchi osmonga o‘q otish bilan qorovul boshlig‘ini chaqirishi mumkin.

**2.5-§ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI
PLENUMINING “IJTIMOIY XAVFLI
TAJOVUZLARDAN ZARURIY MUDOFAA
HUQUQINI TA’MINLOVCHI QONUNLARNI
SUDLAR TOMONIDAN QO’LLANISHI HAQIDA“GI
1996-YIL 20-DEKABR KUNIDAGI 39-SON QARORI**



O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 37-moddasida ifoda qilingan zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarning shaxsi, uy-joy va mulk haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarni kafolatlaydi, fuqarolarning davlat mulkini, davlat va jamoat manfaatlarini qo‘riqlash borasidagi Konstitutsiyada belgilangan burchlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu esa sudlardan odil sudlovni amalga oshirishda zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonun talablariga og‘ishmay, qat’iy riosa etishni talab etadi.

Sud amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatdiki, sudlar zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni asosan to‘g‘ri amalga oshirmoqdalar. Shu bilan birga bu masalada muayyan jinoyat ishlarni ko‘rishda xato va kamchiliklar hali yo‘q emas. Ba’zi sudlar zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni fuqarolar o‘zlariga qilingan

tajovuzga nisbatangina amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar deb noto‘g‘ri talqin qiladilar, vaholanki, zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash davlat mulki, jamoat tartibi, boshqa fuqarolarning hayoti, sha’ni qadr-qimmati, manfaatlarini tajovuzdan qo‘riqlashga ham oiddir.

Ayrim sudlar tajovuzga uchragan shaxs, undan qochib qutilish, boshqa fuqarolarga va hokimiyat vakillariga yordam so‘rab murojaat qilish yoki boshqa usullar bilan tajovuzdan saqlanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bunday holda tajovuzga qarshi aktiv ravishda mudofaalanish huquqiga ega bo‘lmaydilar degan noto‘g‘ri fikrga asoslanadilar. Bu xil fikr fuqarolarning tajovuzga nisbatan aktiv mudofaalanish huquqini cheklashga va jinoyatchilikka qarshi kurashni susaytirishga olib keladi.

Ijtimoiy xavfli tajovuzni qaytargan shaxslarning harakatlarini baholashda, ayrim sudlar tajovuzning xarakteri va xavfliligini, uning kutilmaganda va tezlik bilan sodir etilganligini, tezligini, himoyalanuvchining tajovuzni qaytarish yuzasidan imkoniyatini inobatga olishmay, faqatgina yetkazilgan zararning og‘irligidan kelib chiqishadi, bu esa zaruriy mudofaa holatida harakat qilgan shaxslarni noto‘g‘ri hukm qilinishiga olib keladi.

Sudlar hamma vaqt ham jazoni individual tartibda belgilash to‘g‘risidagi qonun talabiga rioya qilmaydilar, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxslarga ularning shaxsi haqidagi ma’lumotlar va ishning boshqa holatlarini hisobga olmay og‘ir jazo chorasi belgilaydilar.



Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida va sud amaliyotida vujudga kelgan masalalar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaror qiladi:

1. Sudlarga tushuntirilsinki, Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilganligi yoki aqli norasolik tufayli, jinoiy javobgarlik yoshiga to‘limganligi sababli va boshqa asoslarga ko‘ra javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat’i nazar, Jinoyat

kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalanishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz deb hisoblanadi.

2. Sudlarga tushuntirilsinki, zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergen paytning o‘zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda ham vujudga keladi. Zaruriy mudofaa holati tajovuz tugagandan so‘ng ham bo‘lishi mumkin, agar himoyalanuvchi ish holatlariga ko‘ra tajovuz tugagan vaqtini aniq anglay olmagan bo‘lsa. Hujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa ashyolarning tajovuzchidan himoyalanuvchining qo‘liga o‘tib qolishining o‘zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi.

Tajovuzning oldi olingan yoki tugagandan so‘ng va himoya vositalarini qo‘llash zaruriyati aniq yo‘qolganda himoyalanuvchining tajovuz qiluvchiga zarar yetkazganlikdagi harakati zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Bunday holatlarda javobgarlik umumiylashtirish asoslarda yuz beradi.

Sudlanuvchining bunday harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish maqsadida sudlar yuz bergen voqeanning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan-etilmaganligini aniqlashlari zarur.

3. Sudlar shuni nazarda tutishlari kerakki, agar shaxs ziyon yetkazish (urishish, azob berish, o‘ch olish va boshqalar) niyatida hujumning kelib chiqishiga sababchi bo‘lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo‘sinda qilingan deb topish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiylashtirish asoslarda tavsiflanishi lozim.

4. Qonun mazmuniga ko‘ra, tajovuzning xarakteri va xavflilik darajasiga butunlay muvofiq bo‘lmagan mudofaani va buning oqibatida tajovuzchiga hech qanday zaruriyatsiz Jinoyat kodeksining 100, 107-moddalarida nazarda tutilgan qasddan zarar yetkazilsagina zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Tajovuzchiga uning hujumini qaytarish vaqtida ehtiyoitsizlik bilan yetkazilgan zarar jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.



5. Sudlar zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan himoyalanuvchiga tug‘dirilgan xavfning xarakteri, himoyaning kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum va himoyalanuvchining kuchi nisbatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ishdagi barcha holatlarini (hujum qiluvchi va himoyalanuvchilarning soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarur. Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli.

6. Tajovuz tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida himoyalanuvchi hamma vaqt ham yuz bergan xavfning xarakterini aniq anglab olmasligi va himoyaning tajovuzga nisbatan muvofiq usulini tanlay olmasligini sudlar e’tiborda tutishlari kerak. Agar tajovuz qiluvchiga himoyalanuvchi tomonidan yetkazilgan zarar, tajovuz qiluvchining yetkazgan zararidan ko‘p bo‘lsa va tajovuz oqibatida yetkazilgan zararni to‘la qoplasa hamda himoyalanish tajovuzning xarakteri va xavflilik darajasiga nisbatan butunlay nomuvofiq bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa, bunday holda himoyalanuvchining harakatlarini zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan deb hisoblash mumkin emas.



7. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og‘ir tan jarohati yetkazilganlik tajovuzchining o‘limiga olib kelsa, himoyalanuvchining aybi tajovuzchining o‘limiga nisbatan ehtiyoitsizlik oqibatida yuz bergan bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 107-moddasi bilan tavsiflanishi kerak.

8. Sudlar zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib, sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish, qasddan og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazish jinoyatlarini kuchli hayajonlanish holatida yuz bergan odam o‘ldirish, og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohatlari yetkazish jinoyatlaridan farq qila bilishlari kerak. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida sodir etilgan jinoyatlarda

jabrlanuvchiga zarar yetkazish himoyalanish maqsadida bo‘lmaydi, demak, zaruriy mudofaa holatida ham yuz bermaydi. Bundan tashqari jabrlanuvchining xatti-harakatlari tufayli to‘satdan yuz bergan ruhiy hayajonlanish jinoyatlari (Jinoyat kodeksining 98, 106-moddalari) xuddi shunday hayajonlanish ta’siri ostida vujudga keladi, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlar uchun esa bunday belgi bo‘lishi shart emas.

Agar himoyalanuvchi to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqsa, ayblanuvchining harakati Jinoyat kodeksining 100 yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak.

9. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam o‘ldirish Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining “a, b, d, j, r, s” bandlarida ko‘rsatilgan holatlarda sodir etilgan hollarda ham Jinoyat kodeksining 100-moddasi bilan tavsiflanishi lozim.



10. Sudlar zaruriy mudofaa holatini aniq ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bermasa-da, shaxsning yanglishib, shunday tajovuz qilishi mumkin degan taxminiy holatlaridan farqlashlari kerak. Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo‘lmasa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak.

Agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko‘ra ham uni albatta bilishi mumkin bo‘lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim.


11. Sud sudlanuvchining harakatlarida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish alomatlari bor deb hisoblaganda, ish holatini umumiy ta’riflash bilan chegaralanmay, hukmda ish yuzasidan aniqlangan hamma holatlarga asoslanib, himoyaning hujum xarakteri va xavflilik darajasiga butunlay nomuvofiq ekanligini anglatuvchi o‘z xulosasini bayon qilishi kerak.

12. Sudlar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib odam o‘ldirishda, og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir tan jarohati yetkazishda aybli topilganlarga nisbatan jazo

choralari belgilashda, Jinoyat-protsessual kodeksining 467-moddasi talabiga ko‘ra har bir muayyan ish yuzasidan jinoyatning sodir etilishi holatlarini va sudlanuvchilarning shaxsiga oid ma’lumotlarni e’tiborga olib, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlash masalasini muhokama qilishlari kerak. Agar ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilash lozim bo‘lsa, bu holat hukmda asoslantirilishi lozim.

13. Sudlar zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunlarni qo‘llash bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha dastlabki tergov sifatiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirishlari, jinoiy tajovuzga daxldor barcha shaxslar javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligini aniqlashlari va asoslar mavjud bo‘lganda, ularni javobgarlikka tortish masalasini hal etish uchun bu haqda prokurorga xabar berishlari (JPK 417-moddasi) lozim.

14. Sudlarning e’tibori shunga jalb etilsinki, zaruriy mudofaa holatida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmay yetkazilgan zarar Fuqarolik kodeksining 987-moddasiga ko‘ra undirilmaydi.



Shaxsga uning ijtimoiy xavfli tajovuzini qaytarish paytida yetkazilgan zararni qoplash miqdori, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ish holatlaridan hamda mudofaalanuvchi va tajovuz qiluvchining ayb darajasidan kelib chiqqan holda kamaytirilishi yoki zararni qoplash talabi rad etilishi lozim.

Jinoyat kodeksining 100, 107-moddalari bilan sudlangan shaxslardan, ularni davolashga sarflangan mablag‘larni undirish qonunda ko‘rsatilmagan. Bunday shaxslarni davolash harakatdagi qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi zaruriy mudofaa haqidagi qonunlarni sud faoliyatida qo‘llanishi ustidan nazoratni kuchaytirsinslar.

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 13-noyabrdagi “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

XULOSA

Jamiyatni demokratik rivojlantirishning hozirgi sharoitlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan vazifalarni samarali hal etishda inson huquqlarini har doim oliy qadriyat sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga bevosita taalluqli bo'lgan maxsus xalqaro hujjatlar ichki ishlar organlari xodimlarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda muhim rol o'yamoqda. Shaklan ular tavsiyaviy xususiyat kasb etsa-da, biroq, ko'plab davlatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham ularni rasmiy ravishda ijro etish talab etiladi. Xodim tomonidan ushbu maxsus hujjatlar mazmunining egallanganligi hamda ularga rioya etish fuqarolar bilan ishslash faoliyatini insonparvarlashtirish maqsadida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma'lumki, ichki ishlar organlari tomonidan ajratiladigan kunlik naryadlarning xizmati o'qotar quollar bilan amalga oshiriladi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida terrorizm va ekstremizm oqibatlari tufayli jamoat xavfsizligi tahdid tobora kuchayib borayotganligi inobatga olgan holda jamoat xavfsizligini ta'minlash qiyinlashib bormoqda. Shuni guvohi bo'lmoqdamizki, hozirda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan O'zbekiston hududidagi odam gavjum bo'ladigan barcha ko'ngilochar jamoat joylari jangovar qurol bilan qattiq tartibda muhofaza etilmoqda. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'qotar qurol bilan muomala qilish zarurati ortib bormoqda. Albatta, ichki ishlar organi xodimi tomonidan o'qotar qurolni qo'llashning asosiy mazmuni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Zero, o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan qurol qo'llash jarayoni faqatgina qonun ruxsat bergen hollarda va tartibda bo'lishi lozim.

Umuman olganda, ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo'llashning huquqiy asoslari jamoat tartibini saqlash va jamoat xavsfizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qonunlarga rioya etish, mansab vakolatini suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik bilan bir qatorda, xizmat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda o'zining ulkan hissasini qo'shadi.

Ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo'llash bo'yicha huquqiy tartibotlar turli xil xalqaro hamda milliy manbalarda keltirilgan. Xodim tomonidan ushbu tartibotlar puxta egallangandagina o'qotar qurolni qo'llash jarayonida kasbiy malaka shakllanadi.

Ushbu qo'llanmadan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ishlar organi xodimi tomonidan qurol qo'llash bilan bog'liq huquqiy tartibotlar keltirilgan huquqiy asoslarni bir nuqtada mujassamlashtirgan holda talqin etish edi. So'ngso'z o'rnida shu aytishimiz joizki, mazkur qo'llanma ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shsa, maqsadimizga erishgan bo'lamiz!

FOYDALANLIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha 1990-yil 27-avgust – 7-sentabrda Kubaning Gavana shahrida o‘tkazilgan Sakkizinchı Kongressidagi “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o‘qotar qurol qo‘llash bo‘yicha asosiy tamoyillar”;
2. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yil 17-dekabrdagi 34/169-rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvori bo‘yicha kodeks”;
3. BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining 1989-yil 24-maydagagi 1989/61-rezolyutsiyasi asosida tasdiqlangan “Huquqni ta’minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvori bo‘yicha kodeksini samarali amalga oshirish uchun rahbariy tamoyillar”;
4. Yevropa Kengashi Parlamental assambleyasining 1979-yil 8-maydagagi 690-rezolyutsiyasi asosida qabul qilingan “Politsiya xizmati etikasining Asosiy tamoyillari”
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2024;
6. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – T.: Adolat, 2023;
7. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi – T.: Adolat, 2023;
8. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son Qonuni – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023;
9. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagagi “Qurol to‘g‘risida”gi O‘RQ-550-son Qonuni;
10. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjalalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni;
11. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004;

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son Farmoni;
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-10-son Farmoni;
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni;
15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi 1996-yil 20-dekabr kunidagi 39-son Qarori;
16. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 15-martdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o‘qotar qurojni qo‘llash to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasni tasdiqlash haqida”gi 55-son buyrug‘i;
17. O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yil 13-martdagi “Ichki ishlar organlarida ilmiy faoliyatni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 133-son buyrug‘i.

Qo‘srimcha adabiyotlar

2. Inson huquqlari umumiyligi nazariyasi: Darslik / Saidov A.X., Turg‘unov M.T., Matchanov A.A. va boshqalar; Mas’ul muharrir Saidov A.X. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012;
3. Inson huquqlari: Darslik / Mo‘minov A.R., Tillabayev M.A.; Mas’ul muharrir Saidov A.X. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Adolat” nashriyoti, 2013;
4. Jinoyat huquqi (Umumiyligi qismi): Darslik / Yakubov A.S. va boshqalar; – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013;

5. O‘q otish tayyorgarligi va o‘qotar qurollar: O‘quv qo‘llanma / Alijonov A.T.; Mas’ul muharrir Axmedov O.T. – T .: IIV Malaka oshirish instituti, 2022.

Internet saytlari

1. <https://lex.uz>.
2. <https://ru.wikipedia.org>.
3. <https://www.ohchr.org>.
4. <https://aceproject.org>.
5. <https://policehumanrightsresources.org>.
6. <https://pace.coe.int>.

KOMILOV LAZIZJON ZOKIRJON O‘G‘LI

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
QUROL QO‘LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI:
XALQARO VA MILLIY QONUNCHILIK**

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir Abdullayev T.P.

Bosishga ruxsat etildi 23.10.2024-y. Nashriyot-hisob tabog‘i 6.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma №. Bahosi shartnoma asosida

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
100213. Toshkent shahri, Husayn Boyqaro ko‘chasi, 27A-uy